

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 22-iyul chorshanba №29(9614)

"GALAKTIKADA BIR KUN" DA FIZIK XATOLAR

16-bet



ADABIYOTSHUNOSLIK NADIR?

6-bet

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?

SHONALARNI SILKITGAN
RUHIYAT 8-9 – betlar



Attestatsiya bo'lishi kerak, ammo toifa va ustamalar o'quvchining bilimiga qarab berilishi kerak. Chunki bizning bosh maqsadimiz – o'quvchiga bilim berishdan iborat.

Xudoyberdi KOMILOV



Aslida kelajakda bizga fizika va kimyo fanlari bo'yicha malakali o'qituvchilar juda kerak. Afsuski, bu yo'nalishlarni tanlayotgan abituriyentlar soni kamayib, kirish ballari ham pastligicha qolmoqda.

Nodir G'AFFOROV



Kasbga munosabat va fidoyilikning yoshi bo'lmaydi. Oylik uchun ishga qatnab yurganlar orasida yoshlar ham, keksalar ham bor. Shu bois bu masalaga bitta yechim bilan yondashish qiyin. Shunday maktablar borki, nafaqadagi ustozlar ishni tark etsa, kadrlar yetishmovchiligi yuzaga keladi. Ammo shunday holatlar ham borki, cho'ntagi dori-darmonga to'la, sog'lig'i yoki asabi dars o'tishga, bolalar bilan ishlashga imkon bermay qolgan. Ayrim keksalarimizning ishlashda davom etishi yosh, izlanuvchan, yangiliklarni tez qabul qiladigan pedagoglarning ish topolmay sarson bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Zebuniso JUMAYEVA



Tadqiqot



Hayoti va ijodi. Fazliy Namangoniyl (taxallusi; asl ismi Abdulkarim) (XVIII asr 2-yarmi, Namangan – XIX asr 1-yarmi) – sohibdevon shoir, ikki tilda samarali ijod qilgan adabiyotshunos, tarixchi, notiq. Namangan shahri Anorzor mahallasida ma’rifatli oilada dunyoga kelgan. Otasi bolaligida vafot etgan va otasidan qolgan katta bog’ hovlida onasi qo’lida tarbiyalangan, yetimlik mashaqqatini ko’rgan. Mahallada ilk savodini chiqargach, madrasada ta’lim olgan, asosan, o’sha davrning bilimdon va fozillaridan hamda Amir Umarxon saroy majlislarida bo’lgan Zokirxo’ja domla qo’lida tahsil olgan.

Zokiriy taxallusi bilan ijod qilgan ustozi Abdulkarimga badiiy ijodda ham to’g’ri yo’l ko’rsatgan. U she’rshunoslik, ilmi bade’, ilmi qofiyadan saboq bergan. Abdulkarim To’ra’qo’rg’on va Namanganda rasmiy lavozimlarda xizmat qilgan, shu sababli xalq hayoti, dardini, ijtimoiy munosabatlarni yaxshi bilgan. Baland iste’dodi tufayli saroyda hurmat va e’tibor topgan, ko’p o’tmay malik ush-shuaro unvoniga sazovor bo’lgan. U Qo’qonga 1810-yili kelgan va 1822-yilgacha, ya’ni Amir Umarxon vafotigacha yashagan, madaniy muhitda faol bo’lgan va samarali ijod qilgan. Bunda saroy ulamolaridan shayx Mavlaviy Namangoniyni yordami va tarbiyasi katta bo’lgan. Hakimxon To’raniy “Muntaxab at-tavorix” kitobida Mavlaviy Namangoniyl shayxning saroyda o’qigan ta’sirli mav’izalarini vaqti-vaqti bilan Amir Umarxon ham ixlos bilan tinglagani va uni sovg’a-salomlar bilan o’zi shaxsan kuzatgani yozilgan (Ibrat. Tarixi Farg’ona. 9–11-betlar; Hakimxon To’ra. Muntaxab at-tavorix (Fors tilidan tarjimon va muqaddima, izohlar muallifi Sh.Vohidov). Toshkent: Yangi asr avlodi. 2010. 337-bet).

Fazliy haqida ilk ma’lumotni hamfikir zamondoshi Mushrif “Shohnomayi nusratpayom” asarida yozgan. U Fazliyni ijodi, malik ush-shuaro unvonini olishi, adabiy muhitda yuksalishi, yaxshi va yomon kunlari xususida xabarlar bitgan. Umarxon 1822-yili vafot etgach Fazliy uning o’limiga ko’plab shoirlar qatori ta’rix bitgan, 1822-yili Namanganga, o’zi tug’ilib o’sgan Anorzor mahallasiga qaytib kelgan va shu yerda vafot etgan. Uning adabiy maktabi va ijodiy an’alarini shoir o’g’li Oxunjon davom ettirgan. U Bandazod taxallusi bilan nazmda ijod qilgan. Fazliydan bizgacha uchta asar yetib kelgan:

1. “Umarnoma”, ikkinchi nomi “Zafarnoma”.
2. “Qudsiy hadislar sharhi”.
3. “Majmuayi shoiron” tazkirasi, ikkinchi nomi “Nomayi nomiy”(“Mashhur nomlar”) yoki “Nusxa” deb atalgan.

Lirik merosi. Fazliydan bizga boy lirik meros qolgan, asosan fors tilida. O’zbek tilida va fors-tojik tilidagi she’rlaridan iborat ikkita mukammal devon tuzgan. Fors-tojik tilida tuzgan devoni Tojikiston Fanlar akademiyasi qo’lyozmalar xazinasida 956-raqam bilan saqlanadi. Devon ustida ilmiy tadqiqotlar amalangan oshirilgan, bu o’rinda xo’jandlik taniqli adabiyotshunos E.Shodiyev tadqiqotlarini eslash kifoya. O’zbek tilidagi g’azallar devoni esa hozircha topilmagan. Fazliyni o’zbek va fors-tojik tillarida yozgan g’azallari mumtoz adabiy merosimizning sara namunalarini sirasiga kiradi. Fazliy she’rlari ko’pgina qo’lyozma va bosma bayozlardan joy olgan. O’zbekcha g’azallari haqida gapirsak, adabiyotshunos E.Ochilov 29 ta g’azali va bir tarjibandini jamlagan. Turli tazkira va bayozlar orqali qator g’azal, muxammas, ruboiy, tuyuq va masnaviylaridan namunalar yetib kelgan. Demak, Fazliy lirik turning beshta janrida ijod qilgan. Ta’sirli va fasohatli bir turkum g’azallari qo’shiqqa aylanib ulguragan. “Shashmaqom”dan “Gul yuzungda zulfungni bog’ aro namoyon qil”, “Qila boshladi menga zulmkim”, “Ey sabo, kel bog’ aro – ko’rgan tamoshodin gapur” kabi qo’shiqlari mustahkam o’rin egallagan va hamon ijrovan tushmagan.

Alisher Navoiy va Fazliy Namangoniyl. Fazliy Sharq mumtoz so’z san’ati zabardast namoyandalari ijodi, xususan, temuriylar davri adabiy muhiti homiylari Sulton Husayn Boyqaro, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur ijodiy merosi hamda

ular yashagan davr va yaratgan adabiy maktablaridan yaxshi xabardor bo’lgan. Fikrimizcha, Fazliy madrasada Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub arab tili grammatikasiga bag’ishlangan kitobni darslik sifatida o’qib o’rgangan. “Sharhi Mullo”ni o’qigani haqida ko’plab ijodkorlar asarlarida xabar yozgan. Fazliyni “gapur” radifli g’azalida shunga ishora bor. Chunonchi:

*Ey mudarris, ishq darsini rumuzidur daqiq,
Muxtasar qil ushbu so’zni,
“Sharhi Mullo”din gapur.*

“Majmuayi shoiron” tazkirasida Amir Umarxon davri badiiy adabiyot taraqqiyoti haqida yozganda, Sulton Husayn Boyqaro davri badiiy adabiyot ravnaqi bilan qiyoslagan yoki xattot Mir Ali Hiraviy nomini talmeh san’ati vositasida yodga olgan. Fazliy tazkiran ko’chirgan samarqandlik xattot Muhammad Yusuf mahorati haqida o’z e’tirofini yozar ekan, uni yunon hakimi Aflotun hamda Alisher Navoiy va Sultonali Mashhadiyning mahoratli shogirdi xattot Mir Ali Hiraviy bilan qiyoslagan. Uning Movarounnahrda nasta’liq xatining keng tarqalishiga sababchi bo’lganini eslatgan:

*Chi Yusuf Muhammad Falotuni fan ast,
Az in she’r ahvoli u ravshan ast.*

(Mazmuni: Muhammad Yusuf ilm Aflotunidir, uning quyidagi she’rida ahvoli ma’lum bo’ladi).

*Bud xomaashro mashqi jaliy,
Xati nasxi nusxayi Mir Aliy.*

(Mazmuni: Uning qalami jaliy xatini yozardi, uning nasx xati Mir Ali Hiraviy xati kabi edi.)

Endi Mir Ali Hiraviy haqida qisqa izoh bersak. Mir Ali Hiraviy – temuriylar, xususan Sulton Husayn Boyqaro davrining xattoti va shoiri. Xattotlik san’atini Zayniddin Mahmud, Sultonali Mashhadiydan o’rgangan. Hirotda Sulton Husayn mirzo, Buxoroda Abdulazizxon kutubxonalarida faoliyat yuritgan. Xati juda nafisligi va tez yoza olish qobiliyati bilan zamondosh xattotlardan ajralib turgan hamda o’z nomiga “Sulton yoki kotibi Sulton” unvonini qo’shib yozish huquqiga ega bo’lgan. Movarounnahrda nasta’liq xatining keng yoyilishiga xizmat qilgan, yaxshi shogirdlar tayyorlagan. Xattotlik qoida, usullarini bayon qilib “Medod ul-xutut” (1520) nomli risola yozgan. Undan bizga boy ijodiy meros qolgan. Olimlarning aytishicha, o’ttizdan ortiq qo’lyozmalar va to’rt yuzdan ortiq qit’alari bizgacha yetib kelgan. Fazliy tazkirada bu mashhur xattotning g’azalidan namuna ham keltirgan.

Ammo Fazliyni Alisher Navoiy ijodidan ta’sirlanishi alohida mavzu bo’lib, buni adabiyotshunos E.Ochilov “Navoiy va Fazliy” maqolasida yoritgan. Uning aytishicha, Fazliy ulug’ shoirning “talx”, “emish” radifli g’azallariga go’zal tatabbu bitgan. Masalan:

*Soqiyo, sensiz manga bo’ldi bu oqshom kom talx,
Dam-badam la’ling xumoridin icharmen jom talx,*

– bayti bilan boshlanadigan g’azali Alisher Navoiyning quyidagi misralari ta’sirida yaratilgani anglashiladi:

FAZLIY

*Vahki, hijron sharbatidin bizga bo’ldi kom talx,
Har kishi zahr ichsa bo’lg’ay
kom anga nokom talx.*

G’azallaridagi qator fikr, tashbeh, murojaatlarida ham buyuk salafga hamohanglikni ko’ramiz:

*Yor azmi gulshan etdi, bordi keynidin raqib,
Umr borgandek shitob aylab o’lum orqosidin.*

O’rganishimizga ko’ra, Amir Umarxon adabiy muhiti Sulton Husayn Boyqaro davri madaniy hayoti bilan qiyoslangan nuqtalar bor. O’z davrida adabiyot, san’at va qalam ahliga homiylik qilgan ikki hukmdorni qiyoslashda mubolag’a san’atidan unumli foydalangan va unga malik ush-shuaro unvonini bergan Amir Umarxonni baland qo’yg’an. Bu kabi qiyosiy holat ko’proq g’azal maqta’larida bor. O’qiyimiz:

*To abad bo’lg’ay jahon mulkida, Fazliy, jovidon,
Xusravi sohibqiron sulton Umar kishvarkusho.*

Yoki:

*Shohi din Umar sulton chokariman, ey Fazliy,
Bosh qo’yar murod istab dargohig’a sultonlar.*

Fazliy Namangoniyl ba’zi g’azallari maqta’sida mubolag’a vositasida Amir Umarxonni shoh Iskandar yo Doro bilan qiyoslagan, to’g’ri, bu mubolag’ali qiyos badiiy adabiyot yoki madaniy muhit, qalam ahli doirasida emas, balki Amir Umarxon davlat boshqaruvida adolatparvar hukmdor sifatida adlni pesha qilgani xususidadir. Masalan:

*So’zla, ey Fazliy, Umar sulton shukuh-u adlidan,
Man qachon aydim Sikandar birla Dorodin gapur.*

Umuman, Fazliy ijodida murojaat san’ati kuchli qo’llangan, yuqorida keltirilgan baytlarda *soqiyo*, *ey andalib*(2 marta), *ey Fazliy*(3 marta), *ey mudarris* kabi murojaatlar qo’llanganini ko’rdik. Fazliy lirikasida Qo’qon adabiy muhitining boshqa shoirlari kabi Fuzuliy ta’siri harf, qo’shimcha, so’z, birikma shaklida yaqqol seziladi. “Evaz” radifli g’azalda “a” harfi bilan:

*Vasl bobi orzusi birla jon berganlara,
Zavqi unnobi labi, sebi zanaxdondur evaz.*

Yoki “cho’x” so’zini qo’llash bilan:

*O’zin piri mug’on zohid kabi cho’x berivoj etmaz,
Kim ul afsun ila afsona deb so’zni lijoj etmaz.*

Bu kabi holatlarda, Nasrullo Davron so’zlari bilan aytak, “fuzuliyashtirish”(Jalolov T. O’zbek shoirlari. Birinchi kitob. Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980. 137-138-betlar) mavjud: “Fuzuliyga ergashish o’zbek adabiyotida uning g’azallariga muxammas bog’lash bilan cheklanib qolmay, bora-bora bu bir maktabga – Fuzuliy maktabiga aylandi. Bu adabiy maktab muxlisari o’zbekcha she’rlarda Fuzuliy tili uchun xarakterli iboralarni ishlatish, she’r tilini ozarboyjonchaga yaqinlashtirish, boshqacha aytganda, tilni “fuzuliyashtirish”ga ko’proq mayl ko’rsatdilar”(Jalolov T. O’zbek shoirlari. Birinchi kitob. Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980. 138-bet). Ma’lumki, “fuzuliyashtirish” Muhammad Alixon ijodida juda baland bo’lgan(Said Muhammad Alixon. Devon (Nashrga tayyorlovchi, so’zboshi, lug’at izohlar muallifi O.Jo’raboyev). Toshkent: Tamaddun: 2024. 244-b).

Fazliy mahoratini ochishda g’azallarida ustalik bilan qo’llangan ayrim she’riy san’atlar va poetik birikma, obrazli iboralarga murojaat qilsak.



NAMANGONIY

Tamsil she'riy san'ati. Bu baytda shoir tamsil yordamida singan ko'ngilni tadbir bilan tiklab bo'lmaydi, ammo singan suyakni mumiy bilan davolash, tiklash mumkin, degan:

*Sinsa ko'ngil shishasi tadbir ila bo'lmas butun,
Ustixon ermashi, oni rost qilmas mumiy.*

An'anaviy usulda saboga murojaat. Bu baytda Fazliy murojaat san'ati (Ey nasim) va takror san'ati bilan sinonim so'zlar takrorini (Xo'b, yaxshi, xayra) yuqori pafos va badiiy estetik zavq bilan qo'llagan:

*Ey nasim, ul sarvi gul ruxsordin berding xabar,
Xo'b qilding, yaxshi kelding,
xayra maqdam, marhabo.*

(Xayra maqdam – xush kelibsiz iborasi)

Ushbu baytda go'zal tasvir va niyat bayoni mujasam. “ga” qo'shimchasi “a” harfida “fuzuliylashtirilgan”, sarvga – sarva shaklida:

*Sarva ko'rguzma qadingni, gulga arz etma jamol,
Qilma gulshan ayshini, ey sarvi gulandom, talx.*

Fazliy g'azallarida Farhod obrazini yashirin talmeh bilan Kuhan deb atash yoki faloniy obrazi kabi adabiy hodisalarni ham kuzatish mumkin. Kuhan:

*Aytur ko'ngul g'amida Kuhan dog' toza bo'l,
Bu telba so'zig'a nega solmas qulog' dog'.*

Falon ibni falon, faloniy obrazlari qo'llangan ta'sirli tasvirlar:

*G'urur etma nasab piroyasig'a, hosil et ma'ni,
Na sud andin degaylarkim, falon ibni falondur bu.*

*Xirad ahli junun ko'yida ahvolimni ko'rganda,
Demishlar oshiqi devona husni falondur bu.*

Mazkur baytda qo'llangan g'uluv she'riy san'ati go'yo Jomiy va Osafiy o'rtasida bo'lib o'tgan suhbat va Jomiyning “Mavlono, siz she'r o'qiysizmi yo odam qo'rqitasiz?” degan hazilomuz so'roq gapini yodga soladi:

*Falak toqini ravshan aylagan
har shom barq ermas,
Sipehr ohim o'tin aflokdin afloka do'ndurdi.*

Tarjibandda Fazliy talmeh san'atining murakkab turini Jamshid va Firidun davlati, Nushiravon adli, saxiy Hotamning himmati, ehsoni mahorat bilan qo'llagan va Amir Umarxon davlati barakali o'tsin degan niyatini poetik talqin qilgan, “Shodmiz bir necha mahzunlar ani davronida” deb o'z shukronasini bildirgan:

*Bizga xush oshiqlik'-u ahli xarobot ulfati,
Har zamon manzurdur soqiyni mohi tal'ati,
Elga ravshandur Sikandar birla Doro shavkati,
Xalq aro mashhur Jamshid-u Firidun davlati,
Fosh erur Nushiravon adli, Hotam himmati,
Barchasi Sayyid Umar sultong'a yo'qtur nisbati,
Yo Rab, o'lg'ay jovidon iqbol-u davlat himmati,
Shoh bizni shohimiz, sulton bizing sultonimiz,
Davri bizni davrimiz, davron bizing davronimiz.*

Shoir Fazliyning lirik merosi. S.Ayniy “Namunayi adabiyoti tojik” antologiyasiga uning besh baytli “man” radifli g'azalini kiritgan va gap shaklida u Amir Umarxon davrida yashagani, tazkira yozganini qayd etgan (Sadridin Ayniy. Namunayi adabiyoti tojik. Kuliyoti S. Ayniy, jildi 16/ Dushanbe, 2010.

261-sahifa). Olim Sharafiddinov o'zi tuzgan “Xrestomatiya”ning “Umarxon davridagi Farg'ona shoirlari” faslida o'n to'qqiz nafar farg'onalik shoirlar qatorida tilga olgan va Fazliyning Umarxon g'azaliga tazmin qilib yozgan “tarog'” va “qil” radifli ikkita fasohatli g'azalini tamsil qilgan. Olim Sharafiddinov ushbu faslda Umarxon davri madaniy muhitini yoritgan ekan, Fazliyning “Majmuayi shoiron” tazkirasidan unumli foydalangani kuzatiladi (O.Sharafiddinov. Xrestomatiya. Toshkent, O'z Davlat nashriyoti, 1945. 191–198-betlar).

A.Qayumov “Qo'qon adabiy muhiti” kitobida alohida fiqrani Fazliyga atagan. Olim fiqrani yozishda Fazliyning “Majmuayi shoiron” va otasi P.Qayyumiyning “Tazkirayi Qayyumiy”, “Ho'qand tarixi va uning adabiyoti” asarlariga asoslangan (Qayyumiy P. Tazkirayi Qayyumiy. Toshkent: Qo'lyozmalar instituti nashriyoti, 1998. 127–132-betlar; Qayyumiy P. Ho'qand tarixi va uning adabiyoti. Toshkent: Tamaddun, 2011. 26–28-betlar; O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 3-tom. Toshkent: Fan, 1978. 117–134-betlar).

M.Hasaniy Fazliy tazkirasini nashrga tayyorlagan va so'zboshida uning lirikasi xususida fikr bildirgan (Fazliy Namangoni. Majmuayi shoiron. Toshkent: Fan, 2018. 24–33-betlar). Yana bir adabiy hodisani ta'kidlash zarurki, shoira Mahzuna ijod olamini o'rgangan olimlar Fazliy va Mahzuna o'rtasida aytilgan mushoiraga alohida diqqat qaratishgan va badiha sabab Fazliy lirikasiga ham qiziqish bildirishgan (Qayyumiy P. Tazkirayi Qayyumiy. Toshkent: Qo'lyozmalar instituti nashriyoti, 1998. 127–132-betlar; Jalolov T. O'zbek shoirlari. Birinchi kitob. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. 120–122-betlar; Rajabova B. Mahzuna ijodining o'rganilishiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. 2026. 1-son, 86–92-betlar).

“Umarnoma”(“Zafarnoma”) asari. Fazliy juda bilimdon inson bo'lgan, tarixchi sifatidagi iqtidori ham yuqori bo'lgan, “Umarnoma” tarixiy asari uning mahoratini ochib beradi. Umarxon o'z davri tarixini yozishni tarixiy kitob yozgan tarixchi Shermuhammad Akmal Ho'qandiyga emas, Fazliy Namangoniya buyurgan. Bu asar xususida Fazliy Namangoni “Majmuayi shoiron” tazkirasining muqaddima qismida yozgan:

*Hamin bas buvad qadram, ey nomjuy,
Ba nomi Amiram “Zafarnoma” go'y.*

(Mazmuni: Ey nom qidiruvchi, qadrim uchun Amirga bag'ishlab “Zafarnoma” kitobini yozganim yetadi.)

Uning “Umarnoma” asari, birinchidan, ingliz sharqshunosi Stori Charlz Ambrauz “Персидская литература: био-библиографический обзор” asarining uchinchi jildida qisqacha tavsif qilingan (Stori Ч. А. Персидская литература. Библиографический обзор. В трех частях, – часть 3. – Москва: Наука, 1972. – С. 1187).

Ikkinchidan, taniqli tarixchi olim Sh.Vohidov tomonidan batafsil o'rganilgan va olim “Qo'qon xonligi tarixi” kitobining “Qo'qon xonligi hududlarida tarixnavislik namoyandalari, asarlari” nomli bobida Fazliy “Umarnoma”sini bir fasl doirasida tadqiq etgan (Vohidov Sh. Qo'qon xonligi tarixi (xonlik tarixi – manbalarda). Toshkent: 2014. 75–79-betlar). Fazliy hayoti va ijodini o'rgangan boshqa olimlar ham o'z tadqiqotida xabar shaklida izoh bitgan (Qayumov A. Asarlar. 7-jild. 1-kitob. Qo'qon adabiy muhiti. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. 7–16-betlar). Akademik A.Qayumov, sharqshunos M.Hasaniylar qisqa ma'lumot yozishgan. Fazliyning “Umarnoma” asari qo'lyozmasi yagona nusxada yetib kelgan, Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida S 2467 raqami ostida saqlanadi. Bu asar haqidagi birinchi ma'lumotni Mirzo Qalandar Mushrif bergan. Chunki Mirzo Qalandar Mushrif Fazliyning mazkur asarini nazmdan nasrga o'girib, undagi tarixiy voqealarni kengroq bayon qilgan. Mushrif Amir Umar-

xon saroyida Amir Temur, Bobur va boshqa hukmdorlar tarixi to'g'risida bo'lib turadigan ma'rifiy suhbatlar haqida yozar ekan, “Umarnoma” haqida gapirgan. Fazliyning tarixiy asari nima uchun xonga manzur bo'lmagani xususida fikrlar aytilgan. Ingliz sharqshunosi Stori Charlz Ambrauzning “Персидская литература: био-библиографический обзор” asarida buni doston to'lig'icha Amir Umarxon hayoti, shaxsiga, davlat boshqaruvi, harbiy yurishlariga bag'ishlangani, ammo Fazliy minglar sulolasi bilan bog'liq “Oltin beshik” (“Золотой колыбели”)(Stori Ч. А. Персидская литература. Био-библиографический обзор. В трех частях, – часть 3. – Москва: Наука, 1972. – С. 1187) afsonasini kiritmagani bilan bog'lagan. Yana Fazliy asarida Amir Umarxon nasabnomasini sayyidlarga bog'lamagani ham sabab bo'lgan. Bu asar yagona nusxada bo'lib, mamlakatimizda davriy nashri hali amalga oshirilmagan. Zahmatkash olim Sh.Vohidovning “Qo'qon xonligi tarixi” kitobining “Qo'qon xonligi hududlarida tarixnavislik namoyandalari, asarlari” nomli bobida Fazliy “Umarnoma”si bir fasl doirasida batafsil o'rganilgan. “Umarnoma”ni yozishda Fazliy Abdulloh Xotifiyning “Temurnoma” asarini namuna sifatida tanlagan... “Umarnoma” asari an'anaviy muqaddima va 42 bobdan iborat asosiy qismni o'z ichiga oladi. Asarning Qo'qon xonligidagi kosibchilik va kosib-hunarmandlar haqidagi ma'lumotlari ham katta ahamiyatga ega. Unda Umarxonning yaqinlari haqida ham xabar bor.

“Umarnoma” asari Fazliy Namangoni ijodini o'rganishda boshqa asarlari bilan bir qatorda asosiy manba sanaladi” (Vohidov Sh. Qo'qon xonligi tarixi (xonlik tarixi – manbalarda). Toshkent: 2014. 75–79-betlar).

“Majmuat ush-shuaro” (“Nomayi nomiy” yoki “Mashhur nomlar”) tazkiras. Tazkira Fazliy va Mirzo Qalandar Mushrif tomonidan 1821-yilda tuzilgan. Keyin qayta-qayta ko'chirilgan. Tazkira XVII asr oxiri va XIX asr birinchi choragida Qo'qon adabiy hayoti to'g'risida mukammal ma'lumot beradi. Fazliyning adabiy merosida “Majmuat ush-shuaro” tazkirasida alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning “Majmuayi shoiron” tazkirasida adabiyotshunoslik va matnshunoslik doirasida o'rganilgan. Is'hoqxon To'ra Ibrat o'zining “Tarixi Farg'ona” tarixiy asarining “Asri Umarxon jannatmakon ibn Norbo'taxon” nomli faslida shoir bir guruh iqtidorli shoirlar qatorida Fazliy nomini tilga olgan va ularning she'rlari Fazliy tazkirasiga kirgani tilga olingan. Chunonchi: “Ul asrda shoirlar rivojida bo'lub, shu'arolar ko'paygan ekanlar. Bulardan Xotif, Mashrab, Fitrat, Adoiy, Akmalxon to'ra, Namangandan Mavlono Fazliy va shoirlardan ham necha adad fozila xotunlar bor ekan. Bularning ash'orlari “Majmuat ush-shuaro”da masturdur” (Is'hoqxon To'ra Ibrat. Tarixi Farg'ona. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. 9-bet). S.Ayniy “Namunayi adabiyoti tojik” antologiyasida Umarxon buyrug'i bilan tazkira tuzgani aytilgan. Olim Sharafiddinov “Xrestomatiya”sida Fazliy tazkirasiga kiritilgan 19 nafar shoirning she'rlari berilgan. P.Qayyumiy “Tazkirayi Qayyumiy”da unumli foydalangan. A.Qayumov “Qo'qon adabiy muhiti” kitobida Fazliy tazkirasining 14 ta qo'lyozma nusxalarini o'rganib chiqqan va tazkira umumiy tavsif bergan. M.Shoniyo'zov tazkira yuzasidan “Majmuayi shoiron” tazkirasini matnini tayyorlash prinsiplari va matniy tadqiqi” nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Dissertatsiyada tazkira adabiy manba ekani, unda Qo'qon adabiy muhitining aks etishi, tazkiraning matn xususiyatlari, yig'ma matni va uni tayyorlash prinsiplari tadqiq qilingan (Shoniyo'zov M. “Majmuayi shoiron” tazkirasini matnini tayyorlash prinsiplari va matniy tadqiqi (filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya) – Toshkent: 2009. 113 b). A.Qayumov “Qo'qon adabiy muhiti” kitobida M.Shoniyo'zovning mazkur ilmiy ishiga baho bergan. M.Hasaniy 2018-yilda tazkirani nashrga tayyorlab, salmoqli so'zboshi yozgan. Ammo tazkiraning 2-qismida shoirlarning faqat o'zbekcha g'azallarini kiritgan, shoirlar hasbi holi yozilgan forscha-tojikcha masnaviylar tarjimasini bilan berilgan. Fors-tojikcha she'rlar bilan nashr qilish galdagi vazifadir.

(Davomi 4-5-betlarda.)

FAZLIY NAMANGONIY

(Davomi. Boshi 2-, 3-betlarda.)

Maʼrifatparvar P.Qayyumiy “Tazkirayi Qayyumiyy”da alohida fiqra yozgan. Fazliyning Namangan-dan ekani, Umarxon saroyiga kelishi, xon qabulida boʻlishi, Fazliyning soʻzda chizilgan portreti, 100 dan ziyod qalam ahli haqida, “Majmuayi shoiron” taz-kirasi va adabiy xizmati xususida maʼlumot bitgan (P.Qayyumiy. Tazkirayi Qayyumiy. Toshkent: Qoʻl-yozmalar instituti nashriyoti, 1998. 127–132-betlar). P.Qayyumiy “Hoʻqand tarixi va uning adabiyoti” ki-tobida “Shoir Fazliy” nomli fasl yozgan va “Gʻaza-li Fazliy” deb 3 ta gʻazalini tamsil qilgan. Muallif kitobida “Umarxonning buyrugʻi bilan oʻshal zamon shoirlarining sheʼrlarini toʻplab bir kitob qoldirish bi-lan tanilgan kishi edi. Haqiqatan, agar Fazliy boʻlma-ganda bu davr qorongʻu holda qolar edi. “Majmuat ush-shuaro” kitobining egasi boʻlib xizmati shunda-dir. Har bir shoirning oʻziga qarab qisqa maʼlumot bergan masnaviylari bor”(P.Qayyumiy. Hoʻqand tarixi va uning adabiyoti. Toshkent: TAMADDUN nashriyoti, 2011. 26–28-betlar) deb Fazliy tazkiras-i-ning ahamiyatini yuqori baholagan. “Oʻzbek ada-biyoti tarixi”ning “Tazkiralar” faslida “Majmuayi shoiron” nomi ostida alohida fasl berilgan. Unda Rah-matulla Qori Vozehnning “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-asʻhob”, Ahmad Tabibiyning “Majmuayi ush-shua-roni Feruzshohiy” va “Majmuat ush-shuaro” kabi ikki tazkirasi qatorida maʼlumot yozilgan. Yana shu kitobning bayozlar haqidagi “Bayoz” qismida Fazliy tazkiras-i-asosiy adabiy manba sifatida eʼtirof etilgan: “XIX asrning 40-yillaridan keyin tuzilgan Oʻrta Osiyo bayozlari uchun devon, tazkira, qadimiy bayozlar va zamondosh shoirlarning sheʼrlaridan olingan nusxalar bilan bir qatorda Fazliy majmuasi ham asosiy man-balardan biri boʻlgan”(Oʻzbek adabiyoti tarixi. 5 tom-lik. 4-tom. Toshkent: Fan, 1978. 30-bet).

Fazliy “Majmuayi shoiron” tazkirasini Amir Umar-xon amriga koʻra tuzgan. “Majmuayi shoiron”ning turli davrlarda koʻchirilgan 15 ta qoʻlyozma nusxasi OʻzR FA Sharqshunoslik institutining qoʻlyozmalar xazinasida saqlanmoqda. M.Hasaniy tazkiraning 15 ta nusxasini qiyosiy oʻrgangan. Fazliy va Mushrif tazkirani tuzib boʻlgach, uni mashhur kotib Muham-mad Yusuf Samarqandiy xattotga beradilar. Bu haq-da Fazliy xabar yozgan. Asar sheʼriy usulda bitilgan. Tazkiraning asl nomi “Majmuayi shoiron” boʻlib, bu haqda Fazliy tazkiraning kirish qismida maʼlumot yozgan. Tazkirada Qoʻqon adabiy muhitining 100 dan ziyod koʻzga koʻringan namoyandalari haqida qim-matli maʼlumotlar keltirilgan, ularning isteʼdodi va ijodiga baho berilgan, asarlaridan namunalar tamsil qilingan. Shuni alohida taʼkidlash zarurki, tazkira-da zikr qilingan 100 dan ziyod qalam sohiblari faqat Qoʻqon yoki uning atrofida tugʻilib oʻsgan shoirlar-gina emas, balki Fargʻona vodiysi, Markaziy Osiyo (Стори Чарлз Амбрауз “Персидская литература: био-библиографический обзор” asarining uchinchi jildida Turkiston deb bergan)ning Xoʻjand, Samar-qand, Buxoro, Fargʻona, Xoʻtan, Eron, Koʻlob, Hi-rot, Marv, Balx, Istaravshan, Shahrisabz, Andijon, Vaxsh, Qulzum, Margʻilon, Uychi, Rishton, Kuhsar, Koshgʻar, Rum, Isfara, Namangan kabi turli joylari-dan kelib Qoʻqonda muqim yashab ijod qilgan, kasb egallagan insonlarni ham nazarda tutish kerak. Yana tazkiraga Fazliy hasbi holi, qasida va gʻazallari, tar-jibandi hamda Mahzuna bilan aytgan mushoirasi ham kiritilgan. Tazkira tuzgan shoir Fazliy asarning kirish qismida ana shunday shoirlarning umumiy roʻyxati-ni va, shuningdek, har bir sheʼr oldidan ham uning muallifiga “Masnaviy”da qisqacha tavsif beradi. “Majmuayi shoiron”ning kirish qismi hamd, naʼtlar-dan va Amir Umarxon hukmronligi davrida yashab ijod etgan shoirlarga berilgan tavsifdan iborat. Taz-kira muqaddimasida Boburning sharaflari nomini toʻrt marta, “Muxammaslar, musaddaslar va tarjibandlar”

qismida berilgan “Musaddasi Mir”da talmeh sanʼati vositasida bir marta tilga olgan va Amir Umarxonning nasabda temuriy va boburiy ekaniga ishora qilgan. Uning shoh va shoirligi ulugʻlangan, Qoʻqonda Temur va Boburning duogoʻyi sifatida sharaflangan. Fazliy saroyda boʻlgan adabiy majlislarda Umarxonning Temur va Bobur haqqiga qilgan qutlugʻ duolarini koʻp eshitgan boʻlsa kerak, buni muqaddimada badiiy talqin qilgan. Fors-tojik tilidan M.Hasaniy tarjima qilgan:

*Ba Xuqand dorad vatan roʻzu shab,
Duogoʻyi sultoni Bobur nasab.*

Mazmuni:

*U Qoʻqonni vatan qilib, kecha-kunduz,
Bobur nasabli shohning
duogoʻyi boʻlib turadi. (61-bet)*

*Salotin, ki az zumrai Boburand,
Zi avlodi poki Amir Temurand.*

Mazmuni:

*Boburiylar zumrasidan boʻlgan sultonlar,
Amir Temurning pok avlodlaridandir.*

*Ham zufununi zamon budaand,
Ba mulki xirad komron budaand.*

Mazmuni:

*Ular zamonning donolaridan boʻlganlar,
Donolik mulki ichida baxtiyor boʻlganlar. (85-bet)*

*Suxanhost dar safhayi ruzgor,
Az on nekbaxtoni oliy tabor.*

Mazmuni:

*Bu arjmund oliy nasablardan,
Hayot sahifasida soʻzlar qolgan.*

*Umarshoh k-on k-az Amir Temur ast,
Guli navrasi gulshani Bobur ast.*

Mazmuni:

*Umarshoh Amir Temur naslidan boʻlib,
Bobur gulshanining yangi oʻsgan gulidir.*

*Dar oyinayi tabʼi sohibqiron,
Bud tabʼi nazm ars az on xonadon.*

Mazmuni:

*Bu sohibqironning tabʼ oyinasida,
Nazm yozish shu xonadondan merosdir. (86-bet)*

*Amiri zamon shahi nomvar,
Pisandida axloq-u neku siyar.
(Zamon Amiri va nomdor shoh,
Xulqi toza va qalbi esa pok.)*

*Zakiy tabʼ dono zi roʻyi nasab,
Humoyun nataj astu Bobur nasab.
(Nasab yuzasidan zakiy tabʼli dono,
Baxtiyor ajdodga ega, Bobur nasablidir.) (119-bet)*

Tazkiraga kirgan “Ey koʻngul, mumtoz erur xonlar aro xoqonimiz” deb boshlangan “Musaddasi Mir”da ham xonni Temur nasli, Bobur avlodlari, davomchi-lari, deya Boburni esga olgan:

*Tilgʻa olmasmiz Jamu Kayxusrav-u Afrosiyob,
Shohimiz davrida yoʻq yuz ming alardekka hisob,
Shahriyori safdari sher afkan, zarrin rikob,*

*Nasli Temur, oli Boburga manjish, komyob,
Shoh bizni shohimiz, sulton bizing sultonimiz,
Davr bizni davrimiz, davron bizing davronimiz.*

Kitobning birinchi boʻlimi qasidalardan tashkil topgan. Soʻng Rumdan Abdulqodir Kiromiy, toshkent-lik Xotif, Xijlat, isfaralik Mushrif, namanganlik Faz-liy kabi shoirlarning hamda Nuzhat, Xoʻja Husayn, Zoyeʼ, Qozi Xudoyor, Nusrat, Mir Asad, Afsus, Mak-nun va boshqa shoirlarining Umarxonga(1811–1822) bagʻishlab yozgan qasidalari keltiriladi. Fazliyning yozishicha, 1821-yili shaʼbon oyi, bahor payti Umar-xon katta oʻltirish chaqirgan. Shoir Ado ana shu oʻlti-rishda bir qasida oʻqigan. Hakimxon Toʻra “Qoʻqon xonlari tarixi” kitobida qirqdan ortiq shoirlar qasida bitganiga diqqat qaratgan va Ado qasidasidan tamsil qilgan. Kitobning ikkinchi boʻlimida esa Amir Umar-xon sheʼrlariga payrov, nazira qilib oʻzbek va tojik tilida yozilgan gʻazallar keltiriladi. Amirning gʻazal-larini alifbo tartibida beradi va navbat bilan payrov gʻazallar keltiriladi. Masalan, Amiriyning 7 baytli “qil” radifli gʻazaliga Fazliy, Xotif, Ado, Nola, Xij-lat, Gʻoziy, Bahjat, Ziynat, Nusrat, Foniyy kabi oʻn bir nafar shoirning payrov gʻazallari berilgan. Fazliy Adoni “Masnaviy”da shunday tanishtirgan va bu tur-kiy gʻazalni shoh qoʻllagan radif bilan (Radifi shahi muhtaram ayladi) yozdi deb izohlaydi:

MASNAVIY

*Zihi Xojakim, Adodur xitob,
Siyodat diyorida oliyjanob.*

*Maʼoniy rumuzida faxri jahon,
Soʻzi ravshan-u dilpazir ravon.*

*Bu turkiy gʻazalni raqam ayladi,
Radifi shahi muhtaram ayladi.*

“Gʻazali Ado” deb 11 baytli gʻazalni keltirgan. Gʻazal murojaat sanʼatiga qurilgan boʻlib, matla-da “koʻnglimni namakdon qil” degan oshiqning oʻz koʻziga qilgan murojaati aks etgan va oʻz ishq savdo-sini taʼsirli bayon qilgan:

*Ey koʻz, ayla mardumliq, ul sanamni mehmon qil,
V-ey sharar fishon ashkim yoʻliga charogʻon qil.*

Bu payrov gʻazallar Ado, Nola, Maʼyus, Xotif Xoʻjandiy, Xijlat, Ramziy, Afsus, Mushrif, Qoshif, Rosex, Fazliy, Behjat, Zohid, Kasratiy, Vaxshiy, Gulxaniy, Mahzuna, Akmal, Gʻoziy, Muzmar, Mut-rab, Xoʻjandiy, Vazir, Dabir, Nusrat, Nuzhat, Xijrat, Nizomiy, Maxmur, Mujrim, Maxviy, Hoziq, Mirzo Javod, Xaraviy va boshqa shoirlarning gʻazallari-dir. Kitob oxirida bir necha shoirning bir-birlarining sheʼrlariga yozgan muxammaslari, ruboiy, taʼrix va mushoalaridan namunalar keltirilgan. “Majmuayi shoiron” asari garchi asosan qasidalar va payrov gʻazallar toʻplamidan iborat boʻlsa-da, u XIX asr birinchi yarmidagi Qoʻqon adabiy muhitini oʻrganish-da muhim manbalardan hisoblanadi. Chunki bu asar orqali biz oʻsha davrda yashagan shoirlarning qayerda tugʻilgani, nasab va hasabi, tirikligi yo vafot etgani, mahorati, uslubi, kasbi, farzandlari, hayoti va ijodiga xos ayrim maʼlumotlarga ega boʻlamiz. Bundan tash-qari, oʻsha davrdagi saroy adabiy hayotida avj olgan qasidagoʻylik va nazirachilik anʼanalarining ijtimoiy mohiyati va adabiy taraqqiyotga koʻrsatgan ijobiy yoki salbiy taʼsirini bilib olamiz. Demak, tazkirani tuzishda Mirzo Qalandar Mushrif qatnashgan.

Fazliy Namangoniyy va Mirzo Qalandar Mushrif. Bu faslni yozishimizning ikki, uch saba-bi bor. Birinchidan, tazkirani tuzishda Mushrif qat-nashgan, ikkinchidan, u Fazliyning “Umarnoma”si asosida “Shohnomayi usratpayom” tarixiy asarini yozgan. Fazliy tazkirada Mushrif hasbi holini bergan



va lirikasidan namunalar kiritgan. Amir Umarxonning “o‘lsun” radifli g‘azaliga Mushrif yozgan payrov g‘azalni berishdan oldin uni “Masnaviy”da tanishtirgan. O‘qiymiz:

MASNAVIY

*Falone, ki Mirzoyi Mushrif bud,
Suxansanji donov-u munsif bud.*

*(Bu falonchikim, Mirzo Mushrif edi,
Dono so‘z ustasi va shoh xodimi edi.)*

*Pisandidai tab‘i barnovu pir,
Navisandai madhi poki Amir.*

*(Yosh-u qari uchun u yoqimli kishi bo‘lib,
Amirning pok madhini aytuvchi edi.)*

*Guharhoyi nosufta bisyor suft,
Ba rasmi duo in g‘azalro biguft.*

*(U teshilmagan marvaridlarni ko‘p teshgan bo‘lib,
Duo tariqasida mana bu g‘azalni yozdi.)*

Amir Umarxonning “o‘lsun” radifli g‘azaliga yozgan payrov she‘rini “G‘azali Mushrif” nomi bilan kiritgan. G‘azalda go‘yo shoir duosi aytilgan:

Matla‘:

*Necha hijron xazonidin ko‘ngulga xor-xor o‘lsun,
Yuzung gulzorini parda qil to navbahor o‘lsun.*

Maqta‘:

*Hamisha bul duo virdi zabonimdur,
maning, Mushrif,
Amiri olam oro to jahon boricha bor o‘lsin.*

Mirzo Qalandar Mushrif Isfarada tug‘ilgan, yili noma‘lum, vafoti 1825-yil. U dastlab Qo‘qon madrasasida tahsil olgan. 1818-yildan boshlab Umarxon qo‘shinida lashkar qozisi(Hakimxon To‘ra. Muntaxab at-tavorix (Fors tilidan tarjimon va muqaddima, izohlar muallifi Sh.Vohidov. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2010. 346-bet). Ya‘ni harbiy qozi vazifasini bajargan. Hakimxon To‘ra “Qo‘qon xonlari tarixi” kitobida qayd etgan. Shu davrda “Risolayi askariy” nomli asar yozgan, biroq u hali topilmagan. Muhammad Alixon davrida Isfarada qozi bo‘lib turgan. Mushrif Umarxon ko‘rsatmasi bilan “Shohnomayi nusratpayom”(“G‘alabadan xabar beruvchi “Shohnoma”) kitobini yozgan. Olimlarning ta‘kidlashicha, u mazkur asarni Fazliyning “Umarnoma” asari asosida yozgan. Uning qalamiga mansub “Shohnomayi nusratpayom”ning qo‘lyozma nusxasi Rossiya FA Osiyo mamlakatlari institutining Sank-Peterburg bo‘limida 471-raqam ostida saqlanmoqda.

Ingliz sharqshunosi Stori Charlz Ambrauz “Персидская литература: био-библиографический обзор” asarida Mushrif haqida alohida ma‘lumot yozgan va uning Amir Umarxon buyrig‘i bilan nasrda bitgan “Shohnomayi nusratpayom” tarixiy asariga ham izoh bergan(Стори Ч. А. Персидская литература. Био-библиографический обзор. В трех частях, – часть 3. – Москва: Наука, 1972. – С. 1187).

Xulosa shuki, Fazliy Namangoniy ko‘p qirrali qalam sohibi. Shoirning she‘riyatdagi iste‘dodi yuksakligi u ijod qilgan beshta lirik janrda yaqqol ko‘rinadi. “Majmuayi shoiron” tazkirasi Qori Rahmatulloh Vozeh, Afzal Pirmastiy, Sadri Ziyolar yozgan tazkiralalar uchun namuna bo‘ldi. Ular “Majmuayi shoiron”ga kirgan 100 nafar qalam sohiblari haqida masnaviyda yozilgan ma‘lumotlardan unumli foydalananglar. “Umarnoma” (“Zafarnoma”) tarixiy asari tarix fani uchun ham qimmatli manba sanaladi. Umuman, Fazliy Namangoniy alohida figura sifatida o‘zbek adabiyoti tarixiga kirishga loyiq.

Burobiya RAJABOVA,
O‘z FA O‘zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi,
professor



Buxoro hukmdori amir Muzaffar she‘riyatni sevgan, adabiyotni qadrlagan, hayoti davomida doimo atrofiga ziyoli, ilm-fan namoyandalari va nazm ahlini to‘plagan. Buxoro va Karmanadagi saroy va chorbog‘larida adabiy bazmlar tashkil etgan. Mushoiralar va she‘riy bahslar uyushtirgan. Ahmad Donish o‘zining “Risola yoxud Mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi” asarida amirning adabiy bazmlarini “ashula va raqs” yig‘inlari deb atagan. Unga ko‘ra, amir butunlay ichkilik, bazm-u jamshid, buzuqlik va shahvoniy nafsga berilib ketgan.

Mamlakat mustaqilligini boy bergan Amir Muzaffar doimo aysh-u ishrat va bazm-u jamshid bilan mashg‘ul bo‘lgan: “Kech kirgach bir jamoa erkak va ayol raqqosalar, amir xizmatidagi erkag-u ayollar o‘rda sahniga raqs va ashula bilan kirib kelardi. Shahar aholisi eshitsin deb qo‘shiq naqorati sifatida baland ovoz bilan “Hazrati oliylari salomat bo‘lsinlar!” deb kuylardilar. Bu majlisning boshlanishi xuf-

shoiri “Jur‘at buxorolik bo‘lib, amir huzurida qasidalar so‘zlash va she‘r-u dilkusholar aytish bilan mashg‘ul bo‘lgan:

*Ey oftob, on hama betobiy az chi ru,
Ey gul, zi shabnam in hama dar obiy az chi ru”.*

Shoir Orif ham amir Muzaffarga yaqin nadim

Buxoro hukmdori amir Muzaffar she‘r yozganmi?

ton namoziga azon aytilish vaqtiga to‘g‘ri kelardi”. Amir Muzaffar davrida, Ahmad Donish iborasi bilan aytganda, saroyga musiqachi-yu ashulachi, g‘azalxon-u ertak aytuvchi, shuningdek, raqqoslar va masxarabozlar olib kelingan: “Ushbu qalang‘i-qasang‘ilar suhbatlar, majlislarda, dasturxon atrofida o‘tirishgan”.

Manbalarga qaraganda, Amir Muzaffar davrida hukmdordan tortib beklar saroyigacha adabiy bazmlar o‘tkazish avj olgan. Ahmad Donishga ko‘ra, Amir Muzaffar boshqaruvi zamonida o‘rnatilgan tartiblar jumlasiga gulxan atrofida bazm-u jamshid, tomoshalar, bolalar raqsi, masxarabozlar chiqishi, dorbozlar o‘yini kiritilgan bo‘lib, yil bo‘yi, hamma viloyatlarda kecha-yu kunduz hamma yerda nog‘ora, karnay sadolari yangragan. Aniqroq qilib aytganda, Amir Muzaffar davri uzluksiz bayramlar-u ziyofatlar zamon bo‘lgan. Masalan, agar yangi yil – Navro‘z kirs, ikki oygacha sayil-u ziyofat to‘xtamagan. Keyin Ramazon va Qurbon hayiti nishonlangan. Agar bu bayramlar tugasa, xatna to‘ylari, shahzoda va malikalarning nikoh to‘ylari boshlangan. Bazm-u ziyofatlar, majlislar uzoq davom etgan. Bazmlarda odamlar “Amir davlati bardavom bo‘lsin”, deyishgan. Ahmad Donishning yozishicha, “nay, udni ko‘p eshitib, raqs yig‘inlari va ziyofatlar-da qatnashib, raqs hamda ashula aytiladigan joylarda, yig‘ilishlarda qiziqchilar, dorbozlar qo‘l ko‘tarib amirni duo qilishgan”. Binobarin, amir qarorgohida maqomchilar guruhi uzluksiz ashula aytgan, shoirlar she‘r o‘qigan va raqqos hamda raqqosalar esa raqsga tushgan.

Ahmad Donish amir zamonida keng tarqalgan yangi rusumlardan biri Navro‘z bayramini nishonlash ekanligini aytgan: “Baliq burjining o‘rtasiga yetganida bayramga tayyorgarlik ishlari boshlanib, dorbozlik, ko‘zbo‘yamachilik, mash‘alalar atrofida ashula aytish, raqsga tushish boshlanib ketgan. Ajablanarlisi shunda ediki, buxorolik shayxlar muridlari bilan bayramga taklif etilgan. Darveshlar davra qurib, Mavlaviy(Jaloliddin Rumi)ning masnaviysini o‘qishgan, boshqa joylarda Qur‘on tilovati, xatmi salovot qilingan.

Buxorolik shoirlar “Masnaviyxonlik”dan tashqari quyidagi adabiy davralar tashkil etishgan:

1. Jomiyxonlik.
2. Navoiyxonlik.
3. Soibxonlik.
4. Mashrabxonlik.
5. Fuzuliyxonlik.

Bu davrda ayniqsa Buxoroda “Bedilxonlik kechalari” o‘tkazish keng tarqalgan edi. Amir Muzaffar atrofida doimo shoirlar bo‘lib, mushoiralar uyushtirishgan. Qori Rahmatulloh Vozehga ko‘ra, saroy

shoirlardan bo‘lib, “o‘zining xushgo‘yligi bilan ham-maga maqbul bo‘lmish olim, fozil bir shoir bo‘lgan”. Shoir Orif amir saroyida xizmat qilgan. Shoir Foiq ham saroydagi mushoiralarda amirga bag‘ishlangan qasidalarini o‘qigan. Saroy shoiri Kamol esa o‘z she‘rlarini amir Muzaffar adabiy majlislarida aytgan. Mavloni Lisoniy amir Muzaffar majlisi nadimlaridan biri bo‘lgan. “Tuhfat ul-ahbob” tazkirasida yozilishicha, shoir “Muhbilga majlislarda amir o‘zi biror-bir mavzuda nazm ash‘or so‘zlashni buyurib turgan”.

Adabiy kechalarda amirning o‘zi ham ba‘zan badihatan she‘rlar aytib turgan. Tarixchi Sadri Ziyoning “Navodiri Ziyoiya”sida yozilishicha, “Savdo, ya‘ni Abdulqodir Xoja jamoayi avroq, amir Muzaffarxon suhbatlarining hamdam-u suhbatdoshi edi. Bir kuni fozillar suhbat payti quyidagi misra amir Muzaffarning xotirasiga kelib qoldi(misra):

*Dedim, sening g‘amingda
vujudim adamga aylandi.
Savdo tez fursatda quyidagicha tazmin qildi:
Dedi, sening yo‘qlik vujudingdan kimga g‘am.*

Shoir Savdo aqlli, xushsuhbat, xush tabiatli, badiha aytuvchi kishi bo‘lib, amir Muzaffar uni o‘zining xos suhbatdoshlaridan biriga aylantirgandi. Rahmatulloh Vozeh ham amir saroyida xizmat qilgan. Shoir Muhammad Porso ham amirning mushoira kechalari-da qatnashib, o‘z she‘rlarini o‘qigan:

*Ta‘rix davlati u justam zi aql gufto,
Dar qar‘ai munajjim gufto Abul Muzaffar.*

Buxorolik mutafakkir shoirlar Ahmad Donish, Abdulqodir Xoja, Iso Maxdum va Abulfayzxojarlar ham amir Muzaffarning doimiy suhbatdoshlaridan hamda adabiy majlislarining ishtirokchilaridan bo‘lishgan. Ahmad Donish ham Amir Muzaffarga bag‘ishlab, qasidalar yozib, majlislarda o‘qigan:

*Shunidaam zi hakime, ki podshohonro,
Ba chand toifa boyad kushid rohi visol.
Hama hunarvaru donishnajo ‘hu dinparvar,
Hama suxanvari sanjidai malehmaqol.
Naxust olimi dono ba ilmi din zi usul,
Furu‘ro bishinosad ba jumlai ahvol.*

Muxtasar aytganda, amir Muzaffar huzurida o‘tkazilgan adabiy majlislar mumtoz adabiyot va san‘atimiz taraqqiyotiga xizmat qilgan.

Sherxon QORAYEV,
Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion
universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)



Hamza Hakimzoda Niyoziy jadid adabiyotining atoqli namoyandalari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lponlar qatorida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan adibdir. Ammo uning jadid adabiyotida tutgan o‘rni, jadid namoyandalari safida olib borgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy faoliyati yosh avloddan sir tutib kelindi. Hamza o‘zbek xalqining 1920–1990-yillar avlodiga “O‘zbek sovet adabiyotining asoschisi”, “Ulug‘ Oktabr sotsialistik revolyutsiyasining kuychisi”, “Kommunistik partiya targ‘ibotchisi”, “Revolutsioner shoir” sifatida tanishtirildi. 1990-yildan keyingi avlod Hamza haqida hech qanday ma‘lumotga ega emas.

Hamza o‘zbek millatining ma‘rifati, madaniy va ma‘naviy taraqqiyoti uchun jonini fido qilgan vatanparvar, millatparvar, fidoyi o‘zbek o‘g‘loni edi. XX asrning 1920–1990-yillarida hamzashunoslik ilmiy yo‘nalishida yuzlab adabiyotshunos, tilshunos, tarixshunos, san‘atshunos, pedagog va faylasuf olimlar Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodi hamda uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati haqida ilmiy tadqiqot olib borganlar. Ammo barcha tadqiqot ishlarida Hamza Hakimzoda Sho‘ro hukumatini madh etuvchi shoir sifatida ulug‘langan. Barcha yo‘nalishdagi olimlar Hamza ijodidan kommunistik partiya mafkurasiga mos keladigan g‘oyalarni qidirganlar. Hamza ijodi partiyaviy g‘oyalardan xoli bo‘lgani sababli ilmda g‘ayriilmiylik paydo bo‘lgan. Ana shu g‘ayriilmiylik Hamza va uning ijodi haqida ikkiyoqlama tasavvurlarni paydo qilgan. Natijada Yangi O‘zbekistonning yangi avlodi Hamza hayoti va ijodi haqida bor haqiqatlarni bilmay kelyapti. Katta avlod esa uni revolyutsioner shoir, xotin-qizlarni paranjidan chiqargan, qiz-juvonlarning yuzini ochgan degan mujmal, noto‘g‘ri tushunchalar bilan eslaydi.

savodsiz edi. Hamza bu xalqni uyqudan uyg‘otish, ko‘zini ochish, ma‘rifatga chorlash, haq-huquqlarini anglatish uchun turli ijodiy tajribalarni o‘ylab topardi. U o‘sha davrda yashagan avom xalqning quvonchi-yu tashvishi, orzusi-yu armoni, qayg‘usi-yu shodligi, dardi-yu hasrati, va umuman, xalqqa nima zarurligini yaxshi bilardi. Qisqa qilib aytganda, avom xalqning turmush sharoiti Hamzaga “Milliy ashulalar uchun milliy she‘rlar” majmuasini yaratishda katta material, manba bo‘lib xizmat qiladi. “Milliy ashulalar uchun milliy she‘rlar” majmuasiga kiritilgan she‘rlar xalq orasida doim aytilib, kuylanib kelingan, xalqning ongi, ruhi va qon-qoniga singib ketgan eski ashulalarning ohangiga moslab yozilgan. Shoir ushbu majmuaga kiritilgan she‘rlarning so‘zi va mazmunini avom tezda tushunib olishi uchun ana shunday usuldan foydalangan. She‘rlarda xalqning turmush manzarasi badiiy tasvirlarda haqqoniy aks etgan. Ijtimoiy hayotdagi real manzaraning yorqin tasviri Hamzaning yangi uslubda ijod qilganini namoyish etadi.

“Milliy ashulalar uchun milliy she‘rlar” majmuasining birinchi bo‘limi: “Yig‘la, Turkiston”, “Ko‘zni oching, qar-

“YIG‘LA, TURKISTON” SHE‘RI HAQIDA

Xo‘sh, Hamza aslida kim? Hamza ijodi haqida nimalarni bilamiz? Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889–1929-yillarda yashab ijod etgan adibdir. U juda qisqa – atigi 40 yil umr ko‘rdi. Uning vatanparvarlik, millatparvarlik, ma‘rifatparvarlik kabi ijtimoiy-siyosiy faoliyati, jo‘shqin adabiy ijodi sho‘ro hukumatiga ma‘qul bo‘lmadi. Uning oddiy xalq orasida mashhurlik, yuksak hurmatga sazovorligi va faolligi hukmron tuzum amaldorlariga yoqmas edi. Hamzaning xalq orasida olib borayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy targ‘ibot va tashviqot ishlari sho‘ro hukumati olib borgan siyosatga qarshi edi. Hamza Sovet hukumati siyosati uchun o‘ta xavfli shaxs edi. Ana shu sabablarga ko‘ra u 1929-yili sovet hukumati tomonidan fitna uyushtirilib, vahshiyona o‘ldirilgan. Hamza juda tahlikali va ikkiyuzlamachi zamonda yashagan va qisqa umr ko‘rgan bo‘lishiga qaramay, o‘zidan juda katta adabiy meros qoldirgan. Uning adabiy ijodiy merosi badiiy adabiyotning barcha turlarida namoyon bo‘lgan. Jumladan, “Devoni Nihoni” nomli she‘riy, “Yangi saodat yoxud milliy roman”, “Uchrashuv” nomli nasriy, “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”, “Boy ila xizmatchi”, “Maysaraning ishi”, “Paranji sirlari” kabi 60 ta dramatik asarlari va o‘sha davrning dolzarb ijtimoiy-siyosiy muammolarini yoritgan publitsistik maqolalari Hamza adabiy ijodining asosiy qirralarini tashkil etadi. Hamza 1917-yil Oktabr to‘ntarishigacha o‘tgan davrda dastlab lirik shoir, keyinroq jadid shoiri sifatida tanilgan. 1915–1917-yillarda yaratilgan “Milliy ashulalar uchun milliy she‘rlar” majmuasi jadid adabiyotining, jadid she‘riyatining go‘zal va noyob namunasi sifatida maydonga kelgan. “Milliy ashulalar uchun milliy she‘rlar” majmuasi o‘zbek adabiyoti, she‘riyati tarixida ijodiy yangilik, noyob topilma hisoblanadi. Hamza ushbu majmuani yaratish jarayonida o‘ziga xos ijodiy uslub va yangi adabiy janrlarni kashf etgan. Mazkur majmua 7 xil rangdagi gullar: “Oq gul”, “Qizil gul”, “Pushti gul”, “Sariq gul”, “Yashil gul”, “Safsar gul”, “Atirgul” nomlari bilan atalgan bo‘lib, 30 ta she‘rni o‘z ichiga oladi. She‘riy to‘plam bo‘limlarining gul nomlari bilan atalishida ham Hamzaga xos uslub, sir va ramziy ma‘nolar yashiringandek go‘yo.

“Milliy ashulalar uchun milliy she‘rlar” majmuasi Hamzaning 1915–1917-yillardagi ijodini xarakterlash va baholash uchun yetarli asos bera oladi. Bu tarixiy davr – murakkab davr edi. Mehnatkash xalqning turmush sharoiti og‘ir va mashaqqatli edi. Oddiy kambag‘al xalq yalpi

doshlar”, “Darmon istarsiz?”, “Millat deganlarning oqar ko‘zyoshi”, “Yaxshi holin yo‘qotgan oqibatsiz Turkiston”, “Tor-u mor etding” deb nomlanuvchi oltita she‘rni o‘z ichiga oladi.

Xususan, “Yig‘la, Turkiston” she‘ri besh qismdan iborat bo‘lib, she‘rning har bir qismiga muallif alohida g‘oya va maqsad yuklaydi. She‘rning birinchi qismida shoir asosiy fikr, chaqiriq va xitoblarni umumturkiston xalqi e‘tiboriga qaratadi. Muallif Turkiston elining turmush sharoiti juda achinarli holga kelib qolganidan qattiq afsuslanadi, chuqur qayg‘uga botadi, millat taqdiriga yurakdan achinadi. Mazkur holat she‘rning birinchi qismida quyidagicha tasvirlanadi:

*Yig‘la, yig‘la, Turkiston, yig‘la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig‘la, Turkiston.
Turgil, darddan jisingni sog‘la, Turkiston,
Donish o‘tiga bag‘ring dog‘la, Turkiston.*

*Belga himmat kamarin bog‘la, Turkiston,
Ma‘rifatga yetmoqni chog‘la, Turkiston.
Yig‘la, yig‘la, Turkiston, yig‘la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig‘la, Turkiston.*

Shoir she‘rning dastlabki ikki misrasida butun Turkiston elini, tirik jonlar emas, jonsiz jismlar – “Ruhsiz tanlar”ga o‘xshatadi va bu “Ruhsiz tanlar”ni tebranishga, harakatlanishga, o‘z holiga achinishga chaqiradi. She‘r davomida jism-u joni xurofot, bid‘at, jaholat botqog‘iga botgan “Ruhsiz tanlar”ni darddan jismini sog‘lashga, ilm-u donishlar ilmidan bahramand bo‘lishga, donish o‘tiga bag‘rini dog‘lashga, beliga himmat kamarini bog‘lashga, ma‘rifatga erishish uchun chog‘lanishga, deya hammamni uyqudan uyg‘onishga, ruhini poklashga, pok ruh bilan ezgu ishlarni amalga oshirishga chaqiradi. She‘rning har misrasida Turkiston so‘zining “sog‘la”, “dog‘la”, “bog‘la”, “chog‘la” kabi so‘zlar bilan qofiyalanib kelishi, she‘r g‘oyaviy maqsadini aniqroq ifoda etishga xizmat qiladi.

“Yig‘la, Turkiston” she‘rining ikkinchi qismida Turkiston xalqining ijtimoiy hayoti bor holicha namoyon bo‘ladi. Xalqning g‘aflat uyqusiga to‘ymay, uyqudan ko‘zlari ochilmayotgani, baxt-u iqbol, saodatga erishish mumkin bo‘lgan bir paytda, olg‘a intilish o‘rniga, sarson-u sargardonlikda, zabunlikda yurganidan yig‘lashga

chaqiradi. She‘rning har bir misrasi oxirida “g‘aflatda”, “vahshatda”, “zillatda”, “zulmatda” so‘zlari qofiyalanib keladi va bu so‘zlar xalqning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hamda ma‘rifiy hayoti manzarasini aniq tasvirlaydi. Shoirning ushbu satrlarga yuklagan g‘oyaviy maqsadi va chaqiriqlari ham ayni so‘zlar orqali aytiladi. She‘rda ifoda etilgan “g‘aflat” so‘zi vositasida ommada hushyorlik va sergaklikning yo‘qolganligi, atrof-muhitga nisbatan befarqlik, insoniy burchlar va asosiy vazifalarning unutilganligi ifoda etiladi. “G‘aflat”ni ma‘naviy va aqliy uyqu hisoblab, insonning muhim imkoniyatlardan, xususan, vaqt qadridan mahrum bo‘layotganini ko‘rsatadi.

“Vahshat” so‘zi vositasida kishini dahshatga soladigan ayanchli ahvolga tushgani, nodonlik, jaholat botqog‘iga botib qolganini ko‘rsatadi. She‘rda ishlatilgan “zillat” so‘zi esa(arabcha: **ذِلَّة**) – xorlik, tubanlik, pastkashlik va qadr-qimmatning yo‘qolishini anglatuvchi ma‘naviy va diniy tushuncha bo‘lib, xalqning izzat-hurmatsiz, obro‘siz, o‘z nafsiga qul va qaram bo‘lib qolgan kimsaga aylanib qolganini anglatadi.

“Zulmat” so‘ziga yuklangan ma‘noda esa mustamlaka zulmida ezilgan xalqning qorong‘u turmushi aks etadi:

*Ko‘zlar uyqudan to‘ymas, doim g‘aflatda,
Ne saodat ko‘rmishbiz, bilmam, vahshatda,
Bo‘ldik bugun sargardon dashti zillatda,
O‘tar o‘xshar holimiz bo‘yla zulmatda.
Yig‘la, yig‘la, Turkiston, yig‘la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig‘la, Turkiston.*

She‘rning davomida shoir boylarga murojaat qiladi. Ularni saxiy va himmatli bo‘lishga chaqiradi. Mablag‘lari evaziga maktablar ochishni so‘raydi. Maktablarda musulmon bolalarning xat-savodini chiqarish, o‘z vataniga, millatiga sodiq va g‘ayratli avlodlarni tarbiyalash lozimligini tushuntiradi. Ilmsizlikda millatning, kelajak avlodning kelajagini ko‘rolmaydi va ko‘ngli shu hasratda qolib, bu dunyodan o‘tib ketmasligini boylardan o‘tinib so‘raydi:

*Maktab oching, boyonlar, bo‘ling himmatli,
Bo‘lsun o‘qur sibyonlar oliy g‘ayratli.
Shoyad bo‘lsun millatga sodiq xizmatli,
Bu ko‘ngullar quvonsun qolmay hasratli.
Yig‘la, yig‘la, Turkiston, yig‘la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig‘la, Turkiston.*

She‘rning davomida boylarga ilm-u ma‘rifat yo‘lida qancha mol-u jon ketsa ham ayamasdan sarf etish kerakligi, o‘qimoqlik har bir musulmonga farzligi haqida Qur‘onda qayd etilgani, ma‘rifatsiz din ahli, iymonsiz, ilmsiz kishi komil musulmon bo‘lmasligini tushuntiradi:

*Darig‘ tutmang ilm uchun ketsa mol-jon,
O‘quv farzligi ming yo‘l Qur‘onda farmon.
Ma‘rifatsiz tonulmas ahkomi imyon,
Ilmsizga aytilmas komil musulmon.
Yig‘la, yig‘la, Turkiston, yig‘la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig‘la, Turkiston.*

She‘rning xulosa qismida shoir kelajak avlodga tashvishli, g‘amgin, so‘lg‘in kayfiyatda qaraydi. Vaqtlar o‘tib g‘aflatda o‘tgan bu davrlardan qolgan dog‘ga, o‘ng va so‘liga qaramagan millatning gulshaniga bulbul emas, zog‘lar kelib sayrashini bashorat qiladi. Ya‘ni, mahalliy xalqlar o‘z yerlariga ega emas, boshqa yot kimsalar kelib egalik qilishini ko‘radi:

*Mahzun Nihon ko‘p og‘lar millat bog‘iga,
Mavsum o‘tub g‘aflatdan tushgan dog‘iga.
Bog‘bonlar boqmayur so‘l-u sog‘iga,
Qish kelgach so‘ng netarmiz gulshan zog‘iga.
Yig‘la, yig‘la, Turkiston, yig‘la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig‘la, Turkiston.*

She‘rda shoir yuritgan fikrlar, amaliy hayotda o‘z isbotini topdi. Millatning gullari yo‘q qilindi. Boylar mulki musodara qilinib, bo‘lib olindi. Hosildor yerlar, yer osti va yer usti boyliklari o‘zgalar tomonidan o‘zlashtirib olindi. Agar Hamza Hakimzoda Niyoziy bugun hayot bo‘lganida yana “Yig‘la, Turkiston” she‘rini yozardi. She‘rda eng birinchi adolatsizlik, korruptsiya, nepotizm, boshboshdoqlik, giyohvandlik va turli ma‘naviy buzuvchiliklarni dardil tasvirlardi. Maktabgacha, maktab va oliy ta‘limdagi muammolarga keng urg‘u bergan bo‘lardi.

Taassurot

SHONALARNI SILKITGAN RUHIYAT

Bu dunyoda shoir va sheʼrning dardidan ogʻir dard yoʻq. Bu yukni sogʻ tanida xasta insondek har qanday odam ham butun umr koʻtarib yurolmaydi. Hassoslarning gʻami ham ichkin boʻladi. Shoirning ichiga yutgani esa qon boʻladi, qon sheʼrga siyoh boʻladi. Nolalari boʻgʻzidan otilib chiqmaydi, bu nolalar qancha vaqt bogʻzidan otilolmay yuradi, yara boʻladi, yiring bogʻlaydi. Yiring ham ichga qarab oqadi. Butun vujudiga dardni suvab chiqadi. Butun vujud xastalikni boʻyniga oladi, ruh soʻnadi. Keyin nola emas, ana shu “soʻnib qolgan ruh” tashqari moʻralaydi. Kimdir uni chaqirishini istaydi. Hech boʻlmasa egasi!

*Bir yalanglik boʻlsa,
Toʻyib-toʻyib baqirsang.
Soʻnib qolgan ruhingni,
Qalqib-qalqib chaqirsang!*

Bunday ruhga sohiblik qilmoq ham oson emas. Chaqirganda ichikib qalqmaslikning ham iloji yoʻq. Bu – ichdan kelgan isyon ovozidir. Bu isyon koʻp vaqt zanjirlandi, uni kuylaguvchi tillar kesildi. Tilak Joʻra: “*Qoʻrqib-qoʻrqib ogʻzimni ochaman/Tilim yoʻq, deganda aynan shuni nazarda tutgan edi. Bu ogʻriq Choʻlponning: Tilim zanjirlanmish, derlarki: “Gapir!”/Koʻngilning gʻizosi qop-qora qonlar/* [Choʻlpon,2021;8] satrlarida ham shunday necha isyonlarning bostirilgani, alaloqibat bu til egalarining ham yoʻq qilinishi haqiqatini koʻrish mumkin.

Buxorolik shoir Tilak Joʻra shoirona ruhiyatga joʻra inson edi. U hayoti davomida ana shu ruhiyatga gʻamxoʻrlik qilib yashadi. Ezgin davrni ham, ezgin soʻzni ham, ezgin elni ham yolgʻiz qoldirdi.

Tilak Joʻra “*Qoʻllarni bogʻlar imkonlar*”ni anglar edi. Choʻlponning erksiz qahramonlari aksi Tilak Joʻraning *Sanduvochida* namoyon boʻladi:

*Sayrab quchmoqqa osmoning yoʻqdir,
Yayrab quchmoqqa oshyoning yoʻqdir.* [Tilak Joʻra, 1990;6]

Mustaqillikka qadar oʻz yurtimizda oʻzimizniki boʻlmagan uyimiz, oʻzimiz ucholmagan osmon ostida yashadik. Men qanday qilib bir asr mobaynida buni anglamaslik mumkinligini anglolmayman. Rauf Parfi bekorga “*Zahmatlarda chirpingan, bechora xalqim!*”, demagan. Odam oʻz xalqini *bechora* deb atashi qanchalar ogʻir, *chirpingan* deyish qanchalar ogʻirliqli. Chirpinib yashasa-da, sassiz oʻtishdi. Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Tilak Joʻralar bu chirpingan xalqning ovozi boʻlib chiqdi. Urush mavzulari bahonasida erksizlik motivi yetakchilik qilgan “Asr ovozi”(Asr ovozi. (antologiya) Toshkent: “Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti”. 1988) antologiyasining har bir sahifasida sotsialistik tuzumdan aziyat chekkan turli millatlar ovozi shoir-lar tilidan soʻzlanadi. Tilak Joʻraning tarjima sohamizning rivojlanishida ham xizmatlari katta. Shu antologiyaning dunyoga kelishida yuqorida sanagan uch shoirimiz boshchilik qilib, eng sara tarjimonlar xizmatidan foydalanishgan. Bu tarjimalarda dardi yagona – Ozod inson gʻoyasi boʻlgan toʻrtta qitʼa shoirlari ijodidan namunalar

jamlangan. Har kim eʼtiqodiga yarashgan ish qiladi. Tilak Joʻraning har tomonlama mukammal insoniy eʼtiqodi, oʻz yoʻli bor edi. Bu eʼtiqod unga Choʻlpondan meros qolgan. Bu eʼtiqod chirkini tuzum ichida zalolat ostida qoladi, noilojlik yukini oladi. Ammo qalbni kemiraveradi. Choʻlponning:

*Bir tutam sochlaring mening qoʻlimda,
Gʻijimlab oʻpaymi, yo tarab-yechay,
Sir deb saqlaganing mening qoʻnymida,
Sir deb saqlayinmi, yo yelga sochay.* [Choʻlpon, 1994; 64]

– misralarida ham ne-ne aytilmagan haqiqatlarning timsoli edi soch! Qaro sochning ostida qaro tunda koʻrinmas boʻlganidek jilovlangan sirlar yashirindir. Bunda shoir oʻz umriga kuyib sukut saqlamagan, odamlarga haqiqatlarni uqitirish uchun chidagan. Hali qiladigan ishlari koʻpligi bardoshini mustahkamlagan. Shu bardoshning badiiy inʼikosi Tilak Joʻraning koʻksida tipirchilaydi:

*Qachonlardir otilmagan tosh
Hovuchimda hamon zoriqar.
Uni koʻkka, yerga oʻtaymi?
Yo gavhar deb, bosib bagʻrimga –
Umr boʻyi quchib yotaymi?!*
Uni koʻkka, yerga oʻtaymi?!
*Hovuchimda zoriqdi bardosh,
Koʻtarolmay belim bukilar.
Qachonlardir otilmagan tosh
Laxcha choʻgʻday yerga toʻkilar!*

Otilmagan, zoriqqan, choʻgʻday tosh va uning ogʻirligidan bukilgan bel timsolidi shoirning vijdoni boʻy koʻrsatib turadi. Choʻlpon uslubida yozilgan ushbu satrlarda ikkita qalb urib turibdi. Mardlar qoʻlida otilmay qolgan toshlari bor yurtning boshida ming savdolar qaynaydi. Bu Turkiston qaygʻusidir. Tilak Joʻra – asl turk ogʻloni, chin shoir. U oʻzining mashhur sanduvoch obrazida ham yigʻlayotgan Turkiston va turkiylarning achchiq qadarlarini aks ettiradi:

*Osmoni ogʻuli,
Makoni dogʻuli,
Qushcham,
Turkiy titrogʻingga bunchalar sitam.
Chatanlarda chugʻur-chugʻurlab
Umudim va umrim oʻgʻirlab
Tolding:
Tushlaringda Turkiston koʻrib...* [Tilak Joʻra, 1990; 6].



Tilak Joʻra va uning maslakdoshlari Vatan haqida gapirganda umidbaxsh soʻzlarni sermazmun iboralar bilan toʻldirib osmondan moʻjiza-chalpak kutilgan ilimlilik soʻzlarga oʻrin berishni maʼqul koʻrmaydi. Ular achchiq dardni oʻchoqlari bilan tasvirlaydi. Choʻlponning “Binafsha”sini ezgan nafs bandalari endi shoirning *Sanduvochini* qiyratishadi. “*Chatanlarda chugʻurlagan sanduvoch*” yengil istifoda qilib ketaveriladigan tashbeh emas. Bolsheviklarning supurib-sidirib tashib ketayotgani yetmagandek, xalqda qolgan yuqlarni oʻzimizning laganbardor amaldorlar burunlari ostiga urdilar. Burunlari ostiga urishga topmasalar chatanlari ostiga urdilar. Bu qoʻpollik emas, haqiqat. Bu misralarni yozganda shoir qanday alam-chin boʻlsa, tahlilchining qalami undan kam nafrat sochmaydi. Bu davrning shoirlari shunday qontalash yozdilar. Chunki muhitning chirkinkligi suv boʻyi-da choriq yechishga toqat qoldirmasdi. Professor Qozoqboy Yoʻldoshev Shavkat Rahmonning: *Buyuk Turon kengliklari-da/urugʻlar bir-birin yedi tiriklay...* misralari haqida mushohada yuritir ekan, xuddi shu jihatini oʻquvchiga eshittirib aytadi: “*U – yurt farzandi va uning egasi! Chin farzand sifatida arzon xayrixohlik, chuchmal muhabbat ulashuvchini emas, ruhni uygʻotuvchi, hissiyotni sergaklantiruvchi, qilichday keskir, qamchiday boiguvchi, qalampirday achchiq haqiqatning zalvori bilan Vatan vujudidagi va vatandosh ruhiyatidagi zanglarni koʻchirmoq istaydi*”[Q.Yoʻldosh. 2018; 94-b].

Shu oʻrinda shoirning oʻziga xos soʻz qoʻllashdagi soddala uslubiga kamtarona toʻxtalib oʻtsak.

Shoʻriyat hamohang tarzda hissiy duet, yaʼni hech qanday vositasiz shoir va kitobon ruhiyatini bogʻlay olishi darkor. Ayni shu tugʻyonli tuygʻular haqida Tilak Joʻra qorakoʻlcha ohang va soʻzlarni quyidagicha qoʻllagan:

*Titrasa tovushingdan
Dimiqqan bagʻring, tanang
Sochilib dil gʻubori
Qoyadagi maysaday
Silkinib tursa shonang.*

[Tilak Joʻra, 1990; 5].
[Tilak Joʻra, 1990; 20].
Mana bu misralarda endi hasrat ipi shoirning boʻgʻziga osiladi:

Ruxsora IMOMOVA,
BuxDU tayanch doktoranti

*Bu qanday tamgʻadir
Peshonamga bosilgan
Goʻyo oyogʻim yerdamas
Osmonga osilgan...*

[Tilak Joʻra, 1990; 21]

Tilak Joʻra uchun shoirlik qismatdir. Paygʻambar yelkasida muhri nubuvvat boʻlgani kabi shoirning peshonasida “Shoir – bir umr xalqning iztirobini shonalarida koʻtarib yuruvchi inson”, deya oʻyilganday. Chori cholning hech narsasi qolmadi, tuygʻulari-da. Tuygʻular odamlarga, yaqinlariga nisbatan boʻladimi, odamni odam baxtli qiladimi, odamni farzand shodon qiladimi? Chori cholni endi hayotga nima bogʻlab turadi? Shoirmi-chi? Shoirning oddiy odamdan farqi ham shunda. Shoirning kimsasi qolmasa ham, sheʼri hayotda qolishiga tirgak boʻladi. Chori chol bolasi uchun yashagan boʻlsa, shoir eli uchun yashaydi. Bolasi qolmasayam eli borligini his qiladigan katta sezimga ega:

*Mening ham nimam qoldi?
Koʻzimdagi yosh
Bagʻrimdagi toshdan boʻlak
Mening ham nimam qoldi
Oyogʻim ostidagi omonat yerdan boʻlak,
Ruhimdagi tumonat
Sheʼrdan boʻlak...*

[Tilak Joʻra, 1990; 24]

Oʻtgan asrda oʻzini sotmagan shoir boʻlib qolish uchun, Ibrohim Haqqul taʼbiri bilan aytganda, “*Kafanni yelkada olish*”ga jurʼat kerak edi. Bu nomdan koʻpchilik haqni aytolmaganidan vijdoni qiyналgani uchun voz kechib, qalamni tashlagan boʻlsa, ikkinchilar madhiyabozlik, sotsialistik realizm usuliga oʻtib olishdi. Tilak Joʻra esa ayni shu ondagi shoir vujudi ogʻriqlarini tasvirlaydi:

*Zarafshon kichrayib
Irmoq boʻlganday
Kichrayar Chori cholning koʻzlari,
Kichrayar Tilak Joʻraning
Jussasi
Aytar soʻzlari
Kichrayib boradi.*

Tilak Joʻraning aytar SOʻZI kichraygani yoʻq, shoir imoni bu SOʻZga yana qamchi uradi, SOʻZ yana toʻlgʻonadi, SOʻZ ohlanadi, SOʻZ faryod uradi. SOʻZ bir joyda depsinib turmaydi, alaloqibat otilib chiqadi. Tilak Joʻra shunday portlab turguvchi shoir. U xalqini ayasa-da, oʻzini ayamaydi. “Munojoti Mansur” Orziqul, Shodiqul, Turdiqul kabi uch oʻgʻildan ayrilgan otaning yaproqday silkingan yelkasiga qoʻl qoʻysa-da, shoir koʻksidagi yarani shilib turadi, tirnab, yuladi.

Tilak Joʻra va uning tengdoshlari jaddidlar SOʻZini qoʻliga olib, XXI asr razalaridan kirgan sabolarning qanotiga bogʻlashadi. Bu SOʻZlardagi Kuch, Jaso-rat bugungi shoirlarning yuragida balqib turadi.

Taqriz

MIF VA ZAMON:
TURKIY BESTIARIYLARDA
OʻZLIK TALQINI

Sherzod Komil Xalil ijodida “Turkiylarning xayoliy jonzotlari” kitobi bejiz paydo boʻlgan emas deb oʻylayman. U maʼlum darajada bir necha yil oldindan boshlangan suhbatlarimizning oʻziga xos samarasi hisoblanadi, chunki u Peredelkino yozuvchilar shaharchasidagi dachamda, sokin va shinam Podmoskovye hududida oʻsha vaqtlar yashagan va suhbat qurib turardik. Boshqa mavzular qatori adabiy ijod haqidagi gurunglari-mizda adabiyot va sanʼatda mif va afsonaning oʻrni haqida fikr yuritirar edik.

Koʻplab yozuvchilar orasidan ayniqsa Frans Kafkani alohida ajratib, uning hayotligida nashr etilgan kam sonli asarlaridan biri “Evrilish”ga eʼtibor qaratganimiz yodimda. Kafka oʻz doʻsti va vasiyati ijrochisi Maks Brodga tan olganidek, bu asar sujeti negizida oʻrta asr olmon bestiariylar toʻplamidagi mifologik qahramon – uchuvchi suvarak obrazi yotadi. Bu jirkanch hashorat, tabiiyki, asarda alohida nufuzga ega boʻlmagan Gregor Zamzaning tahqirlanishi va insoniy qadr-qimmatini yoʻqotishining ramziga aylanadi. Kichik idora xodimi Gregor Zamza oilasining yagona boquvchisi edi. Bir kuni ertalab u ogʻir, dahshatli tushdan uygʻonib, manhus hashoratga aylanib qolganini angelaydi. Bu holat unda chuqur tushkunlik va umidsizlik uygʻotadi, ammo u kutgan hamdardlik oʻrniga oilasidagilar tomonidan nafrat va jirkanch hissigacha duch keladi. Oqibatda esa ular uyidagi “ogʻir” va noqulay mavjudlikdan qutulishga harakat qilib, uni shafqatsizlarcha oʻlimga mahkum etadi. Qahramon evrilish jarayonida atrofdagi voqealarning absurdligi bilan toʻqnashadi. U inson qiyoy-

fasida boʻlganida bilib boʻlmaydigan koʻp narsalar, inchnun, oʻzi yashagan jamiyat, hamkasblari va oila aʼzolari haqida yangi koʻp haqiqatlarni bilib olishga muvaffaq boʻladi.

Shunisini tan olishim kerakki, adabiyotda mif yaratish muammosini muhokama qilishda qisman oʻzimizning kamtarona tajribamga ham tayandim. Bu tajriba “Tarziy toshbaqasi” romanini yozish jarayonida toʻplangan. Asarning asosiy sujet yoʻnalishlaridan biri yoshlik chogʻimda Buxoro bozorida bir qariyadan yozib olgan toshbaqa haqidagi rivoyat talqiniga asoslanadi. Unga koʻra, toshbaqaning butun koʻrinishi, xususan, uning tanasini yashirib turgan ikki kosasi va ular orasiga tortib oladigan makkorona boshi goʻyo tarozi va xaridorni aldagani ayyor savdogarni eslatadi. Shu gunohi uchun Olloh uni umrbod oʻzi bilan koʻtarib yuradigan “qamoq”ga mahkum etgan emish.

Maʼlumki, “bestiary” deb ataluvchi adabiy janr (lotincha “hayvon” maʼnosini anglatadi) Yevropada oʻrta asrlarda paydo boʻlgan. Rang-barang illyustratsiyalar bi-

lan bezatilgan bu kitoblarda turli hayvonlarning xulq-atvori nasr va sheʼr shaklida batafsil tasvirlanib, allegorik va axloqiy tarbiyaviy maqsadlarda bayon etilgan.

Sharq, xususan turkiy falsafiy va allegorik tafakkur olami atrof-muhitni bestiariy janrida anglashga allaqachon tayyor edi. Inchnun, Moʻgʻuliston dashtlarida topilgan IX asrga oid turkiy “Fol-lar kitobi”da hayvonlarga allegorik talqin berish keng qoʻllanilgan. Afsonaviy hayvon obrazlaridan XI asrda Mahmud Qoshgʻariy ham “Devoni lugʻotit turk” asarida foydalangan. Sherzod Komil Xalilning “Turkiylarning xayoliy jonzotlari” kitobida Qoshgʻariyda nomi mavjud Bulan nomli jonzotning keltirilgani, shu maʼnoda umumiy anʼanalar zanjirida tarix va bugunni bogʻlashda qoʻl kelganini koʻrish mumkin. Sherzod Komil Xalil bu maʼnoda katta ijodiy ishini amalga oshirib, qirqa turkiy bestiariyini jamlab, ularni tahlil qildi. Bu esa oʻquvchini maʼnaviyatimiz haqidagi yangi bilimlar bilan tanishtiradi: ajdodlarimiz atrof-muhitni qanday anglagani, uni qanday nomlagani, olam haqidagi tasavvurlarini qanday kengaytirgani haqida bilimlari boyishiga yordam beradi. Shu bilan birga, yozuvchi inson oʻzgaruvchan vaqt oqimida yoʻqolib ketmaslik umidi bilan yashashini alohida taʼkidlaydi.

Nega aynan bugun ajdodlarimiz atrof-muhitni qanday tushunib, qanday fikrlaganini bilish shunchalik muhim? Bu odamzodning tadrijiy rivojida oʻzining kelib chiqishi, urugʻi va millat oldidagi burch hissi bilan bogʻliq.

Ruhsiz, robotlashgan asrimizda Xudo va najot farishtalari oʻrmini jonsiz, vijdon va or-nomusdan mahrum sunʼiy intellekt egallab borayotgandek goʻyo. Osmondagi quyosh va oy oʻrniga temir “qubba” boshimiz uzra osilib, barchamizning har bir qadamimiz, fikrlarimiz va amallari-mizni kuzatib turuvchi raqamli “rezervat-siya”ga haydayotgandek taassurot qoldiradi. Koʻchalardagi chiroqlar va millionlab kuzatuv kameralari orqali nazorat kuchaymoqda, uylarimizda esa hamma narsani koʻrib turuvchi “koʻz”dan yashirilib boʻlmaydi, ekranlar orqali shaxsiy hayotimiz ham kuzatilmogʻda, xuddi Oruellning “1984” asaridagi kabi. Ana shunday vaziyatda ajdodlarimiz dunyoqarashidan hikmat va umid olish ayniqsa muhim: ular barcha tirik mavjudotni muqaddas deb bilib, har bir narsaga oʻz haqiqiy nomi va maʼnosini bergan. Mana shu jarayonda Sherzod Komil Xalilning “Turkiylarning xayoliy jonzotlari” kitobining ahamiyati nima uchun muhimligini anglaymiz. Shu tariqa mif va bestiariy anʼanalari orqali shakllangan ajdodlar tafakkuri bugun ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmaganini koʻramiz. Aksincha, tez oʻzgarayotgan va raqamlashgan zamonda inson oʻz ildizlariga qaytib, olamni anglashning maʼnaviy va ramziy usullaridan kuch olishi zarur. “Turkiylarning xayoliy jonzotlari” kabi asarlar esa ana shu bogʻliqlikni tiklab, oʻtmish va bugun oʻrtasida mustahkam koʻprik vazifasini bajaradi, insonga oʻzligini anglash va kelajakka ishonch bilan qarash imkonini beradi.

Temur POʻLATOV,
Oʻzbekiston xalq yozuvchisi





Oramizdagi odamlar

VATANSEVAR SHOIRA

HAQIDA SO‘Z

Haqiqiy vatansevar shoira haqida so‘z ketganda, nafaqat nafis lirikani, balki ilm ziyosi bilan yo‘g‘rilgan ma‘naviy jasoratni tushunamiz. Bunday ijodkorlarning har bir she‘riy misrasi va ilmiy xulosasi Vatanga bo‘lgan cheksiz sadoqatning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ana shunday ilm va ijod fidoyilaridan biri, zahmatkash olim va zabardast ijodkor O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, “Shuhrat” medali va “Do‘stlik” ordeni sohibasi, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti professori, falsafa fanlari doktori Sayyora To‘ychiyevadir.

U ona Vatanni madh etib, xalqni ardoqlab, “suyanganim so‘z bo‘ladi” deya o‘zgacha tug‘yon va sof tuyg‘ular bilan adabiyotimiz maydoniga kirib keldi. Sayyora To‘ychiyevaning she‘riyatida ham, ilmiy izlanishlarida ham ana shu “so‘z”ga bo‘lgan mas‘uliyat, millat ma‘naviyatiga bo‘lgan cheksiz sadoqat ustuvorlik qiladi.

O‘zbekiston xalq shoiri, taniqli so‘z san‘atkori Halima Xudoyberdiyeva: “Iste‘dod bu – ezgulik va yaxshilik deganidir. Ijodkor yozmaslikning iloji yo‘qligi uchun yozadi, shoir bo‘lmaslikka imkon topmagani uchun shoir bo‘ladi” deb bejiz aytmagan edi. Darhaqiqat, olim va shoira ayolning qalbidagi bu ezgulik avvalo uning ilmiy izlanishlarida – millat istiqboli uchun qayg‘urishida, so‘ngra esa she‘rlaridagi yuksak vatansevarlik ruhida namoyon bo‘ladi. Uning uchun ijod va ilm kasbiy ehtiyoj emas, yozmaslikning yoki izlanmaslikning iloji bo‘lmagan ruhiyati qat‘idagi ijodiy talpinish va qalbni titratuvchi ichki bir ilohiy hisdir. Bu tuyg‘u ijodkorni to‘xtovsiz izlanishga, so‘z orqali dunyoni anglashga undaydi. Sayyora To‘ychiyeva uchun bu ichki ijodiy talpinish va ijod qilish hissining ilohiy bir zarurati, avvalo, ona Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbatdan kuch oladi.

Shoiraning qalb qa‘ridan jo‘shib chiqqan har bir satri lirik kechinma emas, Yangi O‘zbekiston taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi bilan yo‘g‘rilgan ma‘naviy hayqiriqdir. Uning ijodida vatansevarlik “balandparvoz” jumla emas, tug‘ilib o‘sgan tuproqqa, millat qadriyatlariga va O‘zbekistonning porloq istiqboliga bo‘lgan qat‘iy ishonch sifatida namoyon bo‘ladi. Olim va shoiraning ma‘naviy olamida Vatan obrazi uning borlig‘ini belgilovchi bosh mezonga aylangan. Mana shunday tinimsiz mehnat va yurtga bo‘lgan muhabbat zahirida esa haqiqiy vatansevar shoira haqida so‘z va yuksak e‘tirof mujassamdir. Uning quyidagi misralarida Yangi O‘zbekistonning bugungi qiyofasi va xalqimizning ertangi kunga bo‘lgan ishonchi o‘z ifodasini topgan:

*Yangi O‘zbek osmonlardan kelmagan,
Bejiz Yangi O‘zbekiston bo‘lmagan.
Islohotlar – ezgulikning mevasi,
Bir yurt qurar bugun yurtning Egasi.
Yurtni asrash – har yurakning xitobi,
Yozilmoqda yangi tarix kitobi.*

*Kim seni der – baxti ustuvor Vatan,
Yuraklarda mangu iftixor Vatan!*

Darhaqiqat, shoira ta‘kidlaganidek, bugun yurtimizda “yangi tarix kitobi” yozilmoqda. Bu kitobning har bir sahifasida esa Sayyora To‘ychiyeva kabi ilm va ijod fidoyilarining zahmatli mehnati, vatansevarlik ruhi mujassamdir.

Sayyora To‘ychiyeva ijodini mushohada qilsangiz, she‘rlarida inson qadriyati ufurib turadi. U odamlarni yaxshilikka undab, yorug‘ kunlarga, muhabbat ila yashashga da‘vat etadi. She‘rlarining har bir satrida ona Vatan va hazrati inson qadri tarannum etiladi. Chunki u adabiyotimizga o‘zgacha jarangdor ovozi bilan kirib kelib, yoshligidan o‘ziga xos ijod yo‘lini bosib o‘tdi. O‘z vaqtida uning she‘rlarini o‘qigan buyuk adib va adibalarimiz shoira ijodiga yuqori baho bergan edi. Xususan, O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov “Sayyoraning ijodidagi fazilatlarini qay yo‘sinda namoyon bo‘layapti? Buning birinchi belgisi, shubhasiz, Sayyora she‘rlarining g‘oyat o‘ziga xosligidadir. Sir emas, adabiyotimiz maydonida g‘ayrat ko‘rsatib, ijod qilayotgan ko‘pgina yoshlarimizda mana shu jihat, ya‘ni ilmiy ibora bilan aytganda, originallik yetishmayroq turadi. Sayyoraning she‘rlarini esa aynan bir mavzuda yozilgan o‘nlab, balki yuzlab she‘rlar orasidan hech bir adashmasdan tanib olsa bo‘ladi” degandi. Uning she‘rlari Nasiba Abdulleyeva, Yulduz Usmonova, Aziza Niyoymetova, Zulayho Boyxonova, Hosila Rahimova, Rahmatjon Qurbonov, G‘ulomjon Yoqubov, G‘iyos Boytoyev, Anvar Sanayev, Oxunjon Madaliyev singari el suygan san‘atkorlar tomonidan qo‘shiq qilinib, xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan. Shoiraning ijod falsafasi shundaki, u “neki yozsa, aziz eldan olib yoza-di”, har bir misrasida millat ruhini tarannum etadi.

Xalqning dard-u quvonchini o‘z yuragidan o‘tkazgan hassos ijodkor faqatgina ijod va ilm bilan cheklanib qolmay, bugungi islohotlar jarayonida jamoat ishlarida ham kamarbasta bo‘lib, jamiyat hayotining eng muhim jabhalarida faol ishtirok etib kelmoqda. Bu fidoyilik zahirida esa yurtdoshlarining ma‘naviy yuksalishiga xizmat qilishdek olijanob maqsad yotadi. Bu uning ham olim, ham vatansevar shoira sifatidagi



ijtimoiy mas‘uliyatining yorqin namunasini. U hozir O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti professori sifatida ilmning zalvorli yukini va she‘riyatning ruhiy quvvatini birdek muvozanatda saqlab kelayotgan fidoyi ijodkordir. Bu mardona ayolning qadamida ilm nuri, nafasida esa vatan ishq bilan yo‘g‘rilgan she‘riyat tarovati bor.

Shoiraning “Vafo bo‘lib uyg‘onaman”, “Men seni qizg‘onaman”, “Ko‘zlaringni sog‘inaman”, “Elim”, “Sanamgina”, “Suyanganim so‘z bo‘ldi” nomli she‘riy to‘plamlari va “Buyuk inson boshlagan yo‘l”, “Munavvar zamin”, “Iftixor”, “Vodiylarni yayov kechganda” nomli nasriy to‘plamlari nashr etilgan. Shu bilan birga “Shaxs ijtimoiy faolligi”, “Ijtimoiy siyosat” (A.Norbekov bilan hammualliflikda), “Milliy istiqbol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar”, “Shaxs ijtimoiy faolligi va ma‘naviy madaniyat”, “Madaniyat va san‘at muasasalarini tashkil etish va boshqarish”, “Boshqaruv texnologiyalari”, “Qadriyatshunoslik”, “Madaniy-ma‘rifiy muasasalarda targ‘ibot-tashviqot ishlari” nomli bir qator darslik va ilmiy monografiyalarning muallifi hisoblanadi.

U “Ma‘rifat ulashib” loyihasi doirasidagi madaniy-ma‘rifiy tadbirlarida, ijod maktablaridagi mahorat darslarida, Oila va xotin-qizlar boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan davra suhbatlarida hamisha kamarbasta. “Ma‘rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a‘zosi sifatida “Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!” shiori ostida o‘tkazilayotgan “Mahallada duv-duv gap!” ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarida o‘zining hayotiy o‘g‘itlari va samimiy suhbatlari bilan xalqning mehrini qozonib, nuroniy-larning duosini olmoqda. Shuningdek, “Yosh kitobxon” ko‘rik-tanlovining respublika bosqichida odil baholari bilan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Xullas, biz unda kunduzlari jamoat ishlarida xalq ardog‘ida, tunlari esa ilm va ijod ummonida mehnat qilayotgan haqiqiy vatansevar ayol timsolini ko‘ramiz. Uning har bir qadami ma‘rifatga, har bir nafasi esa millat iqboliga xizmat qilishga yo‘g‘rilgan.

Asilbek QOLQANATOV,
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti tayanch doktoranti

Elda aziz

O‘zbekiston filologiya ilmi taraqqiyotida professor Ibodulla Mirzayevning alohida o‘rni mavjud. O‘zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligi, she‘rshunosligi va navoiyshunosligi yo‘nalishlarida samarali faoliyat olib borgan yetuk olim sifatida tanilgan olimning ilmiy ishlari nafaqat muayyan bir fan doirasi bilan bog‘lanadi, filologiya-ning turli tarmoqlari o‘rtasidagi uzviy aloqalarni ochib berishga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Tadqiqotlarida til hodisalari badiiy tafakkur, adabiy jarayon va poetik mazmun bilan uyg‘un holda talqin qilinadi.

Ibodulla Mirzayevning ilmiy faoliyati o‘zbek filologiyasida yangi qarashlar shakllanishiga xizmat qilayotir. Ayniqsa, u tomonidan rivojlantirilgan milliy lingvopoetika yo‘nalishi til va badiiy matn munosabatlarini yaxlit tizim sifatida o‘rganishga keng imkon yaratdi. Olimning ilmiy izlanishlari natijasida tilshunoslik va adabiyotshunoslikning o‘zaro bog‘liqligini chuqurroq anglash imkoniyati yuzaga keldi. Shu bilan birga, ustoz ko‘plab ilmiy kadrlar tayyorlab, filologiya fanining keyingi rivojiga munosib hissa qo‘shayotir.

Professor Ibodulla Mirzayevning ilmiy, pedagogik va tashkilotchilik faoliyati o‘zbek filologiyasi tarixida muhim sahifalardan birini tashkil qiladi. Uning ilmiy ishlarini o‘rganish bugungi filologik tadqiqotlar uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

HAYOTI VA ILMIY SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Ibodulla Mirzayev 1946-yil 2-yanvarda Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumanida tavallud topgan. Kelgusida yirik olim sifatida shakllanishida bolalik davridan boshlab ilmga bo‘lgan qiziqishi muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. O‘rta ta‘limni muvaffaqiyatli tamomlagach Samarqand davlat universitetida tahsil olib, filologiya sohasidagi dastlabki nazariy bilimlarni puxta egalladi. Talabalik yillaridayoq til va adabiyot masalalariga chuqur qiziqishi bilan ajralib turgan.

Ilmiy faoliyatining keyingi bosqichi sobiq ittifoqning yirik ilmiy markazlaridan bo‘lgan Leningrad davlat universiteti bilan bog‘liq. U mazkur universitetning roman va turkiy filologiya kafedrasida aspiranturasida tahsil olib, turkologiya hamda zamonaviy tilshunoslikning ilg‘or yutuqlarini o‘rgandi. Bu ilmiy muhit olimning dunyoqarashi kengayishi, tadqiqot metodlarini puxta egallashi hamda mustaqil ilmiy fikr shakllantirishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi.

Ibodulla Mirzayev 1975-yili nomzodlik, 1992-yili doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqladi. Bu ilmiy darajalar uning ko‘p yillik izlanishlari va filologiya sohasidagi chuqur bilimlari mahsuli sifatida e‘tirof etildi. Shu tariqa u o‘zbek filologiyasi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan yetuk olim sifatida shakllandi.

OLIMNING KAMOLOT YO'LI

ILMIY FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI

Professor Ibodulla Mirzayevning ilmiy faoliyati o'zbek filologiyasining bir necha muhim yo'nalishlarini qamrab oladi. U, avvalo, tilshunos olim sifatida o'zbek tilining nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etishga katta e'tibor qaratgan. Til birliklarining mazmuniy va uslubiy xususiyatlarini o'rganish, badiiy matnda til vositalarining qo'llanish qonuniyatlarini aniqlash ilmiy izlanishlarida muhim o'rin egallaydi. Olimning tadqiqotlari o'zbek tilshunosligining zamonaviy rivojlanish jarayonlariga munosib hissa bo'lib qo'shilgan.

Ibodulla Mirzayev adabiyotshunoslik sohasida ham samarali faoliyat yuritgan. U badiiy asarlarning mazmun va shakl birligi, adabiy tafakkur taraqqiyoti hamda ijodkor mahorati bilan bog'liq masalalarni chuqur tahlil qilgan. Ayniqsa, she'riy matnning badiiy tabiati, poetik obraz va estetik ta'sir vositalarini o'rganishga bag'ishlangan ishlari alohida ahamiyatga ega.

Olimning ilmiy merosida navoiyshunoslik ham muhim o'rin tutadi. U Alisher Navoiy asarlarining til va uslub xususiyatlari, badiiy mahorati hamda turkiy adabiyot taraqqiyotidagi o'rnini ilmiy asosda yoritgan. Shu bilan birga, tarjimon sifatida turli xalqlarning ilmiy va adabiy merosini o'zbek kitobxonlariga yetkazishga xizmat qilgan. Mazkur yo'nalishlarning barchasi professor Ibodulla Mirzayevning serqirra olim sifatidagi qiyofasini namoyon etadi.

LINGVOPOETIKA ILMIY MAKTABINING YARATILISHI

Professor Ibodulla Mirzayevning o'zbek filologiyasi taraqqiyotiga qo'shgan eng muhim hissalaridan biri lingvopoetika ilmiy yo'nalishiga asos solganidir. Yo'nalish tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan, badiiy matnning til vositalari orqali yuzaga chiqadigan estetik mohiyatini tadqiq etadi. Olim filologiya fanining alohida tarmoqlarga bo'linib ketishi ayrim hollarda badiiy asarning yaxlit tabiatini to'liq anglashga to'sqinlik qilishi mumkinligini ta'kidlab, yagona ilmiy maydonda birlashtirish zarurligi g'oyasini ilgari surgan.

Lingvopoetika yo'nalishida til birliklari faqat grammatik yoki leksik hodisa sifatida emas, badiiy mazmunni shakllantiruvchi estetik vosita o'laroq ham tahlil qilinadi. Shu jihatdan mazkur ilmiy maktab badiiy matnni chuqurroq anglash, muallif maqsadini aniqlash hamda asarning estetik ta'sir mexanizmlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Professor bu yo'nalishning nazariy asoslarini ishlab chiqish bilan bir qatorda amaliy tadqiqotlar orqali ham rivojlantirdi.

Olim tomonidan yaratilgan lingvopoetika maktabi asosida ko'plab ilmiy tadqiqot amalga oshirildi, doktorlik va magistrlik ishlari tayyorlandi. Bugungi kunda ham ushbu yo'nalish o'zbek filologiyasining istiqbolli ilmiy sohalaridan biri sifatida rivojlanib, yangi tad-

qiqotlar uchun mustahkam nazariy poydevor vazifasini bajarmoqda.

ILMIY PEDAGOGIK FAOLIYATI

Professor Ibodulla Mirzayev ilmiy izlanishlarni pedagogik faoliyat bilan uyg'unlashtirgan olimlardan. Uzoq yillar davomida oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritib, filologiya yo'nalishidagi mutaxassislarni tayyorlash ishiga munosib hissa qo'shdi. Ma'ruzalari nazariy bilimlarning chuqurligi, ilmiy dalillarga boyligi hamda murakkab masalalarni soddada va tushunarli tarzda izohlashi bilan ajralib turadi. Shu sababli u ko'plab talaba, magistrant va tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan ustoz hisoblanadi.

Olim nafaqat auditoriyadagi ta'lim jarayoni bilan shug'ullangan, ilmiy kadrlar tayyorlashga ham katta e'tibor qaratgan. Ilmiy rahbarligida o'nlab fan doktori, falsafa doktori va magistratlar tayyorlangan. Bu ko'rsatkich professor I. Mirzayevning ilmiy maktab yaratgan yetuk pedagog sifatidagi mavqeyini yaqqol namoyon etadi. Shogirdlari bugungi kunda mamlakatimizning turli oliy ta'lim va ilmiy muassasasida samarali faoliyat olib bormoqda.

Professor Ibodulla Mirzayev ilmiy kengash, ilmiy seminar hamda ekspert komissiyalari faoliyatida ham faol ishtirok etgan va ishtirok etmoqda. Ilmiy tadqiqotlarning sifatini oshirish, yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash va filologiya fanining rivojiga xizmat qiluvchi tashabbuslarni amalga oshirish orqali ilmiy jamoatchilik orasida katta hurmat qozongan. Pedagogik va tashkilotchilik faoliyati o'zbek filologiyasi taraqqiyotining muhim omillaridan.

ILMIY VA O'QUV ADABIYOTLARI

Professor Ibodulla Mirzayevning ilmiy merosi yaratgan ilmiy va o'quv adabiyotlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Olim ko'p yillik ilmiy pedagogik faoliyati davomida filologiya fanining turli yo'nalishiga bag'ishlangan yuzlab ilmiy va uslubiy ishlarni yaratdi. U tomonidan yozilgan darslik, o'quv qo'llanma, monografiya hamda ilmiy maqolalar o'zbek filologiyasining nazariy va amaliy masalalarini yoritishga xizmat qilmoqda. Bu asarlar nafaqat talaba va tadqiqotchilar, ilmiy jamoatchilik tomonidan ham yuqori baholanadi.

Olimning ilmiy faoliyati davomida yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalar filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan yoshlarning bilim olishi uchun muhim manba vazifasini bajarmoqda. Ularning mazmunida nazariy bilim bilan amaliy tahlil uyg'unlashgan, murakkab ilmiy tushunchalar aniq va ravon izohlangan. Shu jihatdan professor Mirzayevning pedagogik tajribasi o'quv adabiyotlarida ham o'z aksini topgan.

Professor Ibodulla Mirzayev 500 dan ortiq ilmiy va uslubiy ish, bir necha darslik, o'quv qo'llanma hamda monografiya muallifi sifatida tanilgan. Asarlarida tilshunoslik, adabiyotshunoslik, lingvo-

poetika va tarjimashunoslik bilan bog'liq masalalar keng yoritilgan. Bu ilmiy meros bugungi kunda ham o'zbek filologiyasi rivojiga xizmat qilayotgan qimmatli manbalar sirasiga kiradi.

TARJIMONLIK FAOLIYATI VA XALQARO ALOQALAR

Professor Ibodulla Mirzayev tilshunos va adabiyotshunos, mohir tarjimon sifatida tanilgan. Tarjimonlik faoliyati turli xalqlarning ilmiy va badiiy merosini o'zbek kitobxonlariga yaqinlashtirishga xizmat qilgan. Tarjima jarayonida olim asarning mazmunini to'liq saqlash bilan bir qatorda badiiy ruhi, uslubiy xususiyati va estetik ta'sirini ham imkon qadar aniq ifodalashga intilgan. Shu sababli tarjimalari ilmiy va adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olingan.

Ibodulla Mirzayevning xalqaro ilmiy aloqalari ham sarmazmun. U turli ilmiy markazlarda malaka oshirib, xorijiy olimlar bilan ilmiy muloqot olib bormoqda. Bunday hamkorlik olimning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, zamonaviy filologiyaning yangi yutuqlarini o'zlashtirish hamda ularni milliy ilmiy muhitga tatbiq etishga imkon yaratgan. Xalqaro tajriba ilmiy tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan.

Professor Mirzayevning poliglot olim sifatidagi faoliyati alohida e'tiborga loyiqdir. U o'zbek, tojik, rus, fransuz va ingliz tillarini mukammal biladi. Bir necha tilni egallagani unga jahon filologiyasi yutuqlarini bevosita o'rganish, qiyosiy kuzatishlar olib borish hamda xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish imkonini bergan. Shu jihatdan tarjimonlik va xalqaro faoliyati o'zbek filologiyasi taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

ILMIY NASHRLAR VA JAMOATCHILIK FAOLIYATI

Professor Ibodulla Mirzayevning faoliyati ilmiy-tadqiqot va pedagogik ishlar bilan bir qatorda ilmiy nashr hamda jamoatchilik faoliyati bilan ham chambarchas bog'liq. U filologiya fanining rivojiga xizmat qiluvchi ilmiy muhitni shakllantirish, ilmiy natijalarni keng omamaga yetkazish va yosh tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Olimning tashabbusi bilan tashkil etilgan ilmiy nashrlar filologik tadqiqotlarning muhim minbarlaridan biri sifatida faoliyat yuritmoqda.

Professor Mirzayev "Alisher Navoiy" hamda "Til. Ta'lim. Tarjima" xalqaro elektron jurnallariga asos solgan. Bu nashrlar tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va ta'lim masalalariga oid ilmiy maqolalarni e'lon qilish orqali ilmiy fikr almashinuviga xizmat qilmoqda. Jurnallarning ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilishi ularning mazmuniy saviyasi va ilmiy ahamiyatidan dalolat beradi. Olim bu nashrlarda bosh muharrir sifatida ilmiy maqolalarning sifatini ta'minlashga katta hissa qo'shmoqda.



Ibodulla Mirzayev ilmiy anjumanlar tashkil etish, ilmiy to'plamlar nashr etirish va turli ilmiy kengash faoliyatida qatnashish orqali ham filologiya fanining rivojiga xizmat qilmoqda. Jamoatchilik faoliyati ilmiy hamkorlikni mustahkamlash, yosh olimlarni rag'batlantirish va ilmiy muhitni yanada boyitishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

MUKOFOTLARI VA E'TIROF

Professor Ibodulla Mirzayevning ko'p yillik ilmiy, pedagogik va jamoatchilik faoliyati davlat hamda ilmiy jamoatchilik tomonidan munosib baholangan. O'zbek filologiyasi rivojiga qo'shgan hissasi, yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlashdagi xizmatlari va ilmiy maktab yaratish borasidagi faoliyati ko'plab e'tirofga sazovor bo'lgan. Olimning mehnati nafaqat ilmiy asarlari, shogirdlari, ilmiy loyihalari va tashkilotchilik faoliyatida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Ibodulla Mirzayev mamlakatimizda fan va ta'lim tizimini rivojlantirish, yosh avlodni ilmga jalb etish hamda filologiya fanining nufuzini yuksaltirish yo'lida samarali mehnat qilgan olim sifatida tanilgan. Shu xizmatlari uchun u turli mukofot va faxriy unvon bilan taqdirlangan. Xususan, olim "Mustaqillik" ko'krak nishoni hamda "Birinch darajali mehnat faxriysi" unvoniga sazovor bo'lgan. Bu mukofotlar jamiyat va ilm-fan oldidagi xizmatlarining yuksak e'tirofi hisoblanadi.

Professor Mirzayevning ilmiy sa-lohiyati, insoniy fazilatlarini va ustozlik faoliyati hamkasblari, shogirdlari hamda ilmiy jamoatchilik tomonidan yuksak qadrlanadi. Nomi bugungi kunda o'zbek filologiyasi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan yetuk olimlar qatorida hurmat bilan tilga olinadi. Olimning hayoti va faoliyati yosh tadqiqotchilar uchun ilmga sadoqat, fidoyilik va izlanish namunasi bo'lib xizmat qiladi.

Shogirdlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ustoz yaratgan ilmiy an'analar davom etayotganidan dalolat beradi.

Professor Ibodulla Mirzayevning hayoti va faoliyati ilmga fidoyilik, uzluksiz izlanish va marifatga xizmat qilishning yorqin namunasi hisoblanadi. Ilmiy ishlari kelgusida ham o'zbek filologiyasi rivojiga xizmat qilishda davom etadi. Shu bois olimning asarlari, ilmiy qarash va metodologik yondashuvlarini chuqur o'rganish zamonaviy filologik tadqiqotlarning muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

**Baxtiyor MENGLIYEV,
G'ofir HAMROYEV,
Toshkent Amaliy fanlar
universiteti
tadqiqotchi professorlari**

Ehtirom

1. BAHODIR KARIM – SAODATLI IZDOSH

1966-yil 7-fevralda Turkmaniston Respublikasi Toshhovuz viloyati Toza-yor-mish qishlog'ida ma'rifatli oilada tug'ilgan Bahodir Karimov 1986-yili ToshDU, hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti-ning o'zbek filologiyasi fakultetiga o'qishga qabul qilindi va uni 1991-yili imtiyozli diplom bilan bitirdi. Bu dargohda u Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Begali Qosimov, Norboy Xudoyberganov, Laziz Qayumov, Iristoy Qo'chqortoyev, Shavkat Rahmatullayev, Miraziz Mirtojiyev, Yormat Tojiyev, Tal'at Solihov, Mamlakat Jo'raboyeva kabi zamonasining yetuk

Olim jadid davrini o'rganish bilan bir qatorda zamonaviy adabiy jarayon, xususan, bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari bilan ham jiddiy shug'ulandi hamda tahlil va talqin metodlarini umumlashtirib, "Ruhiyat alifbosi" kitobini yaratdi. Bu bugungi kungacha filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning eng ardoqli qo'llanmasi bo'lib kelmoqda.

Ilm yo'lida insonga hazrati Ayub alay-hissalom sabri kerak. Bahodir Karim ana shunday sabrli va sermahsul olim. Uning xayolida hamisha ilmiy, adabiy, ijodiy rejalar kezib yuradi va navbati bilan qog'ozga tushadi. "Qodiriy qadri", "Yangilanish sog'inchi", "Cho'lpon va tanqid", "Qodiriy nasri – nafosat qasri", "Abdulla Qodiriy fenomeni", "Ikki daho – ikki bebaho", "Istiqlol adabiyoti: nazm va nasr",

ning maqomi naqadar buyukligini hadisi shariflarda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bir necha bor takrorlaganlar: Abu Umoma roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Albatta, Alloh, Uning farishtalari, osmonlar-u yerning ahli, hattoki uyasidagi chumoli va baliq ham odamlarga yaxshilikni o'rgatuvchiga salovat aytadilar", dedilar" (Termiziy rivoyati).



Professor Bahodir Karimning hayot yo'lga nazar solsak, bir qator ibratlar-ga guvoh bo'lamiz. Bu tom ma'nodagi muallimning, asl ustozning hayot yo'lidir.

"Abdulla Qodiriy", "G'afur G'ulomning "Shum bola"si", "Maxtumquli – insoniyat shoiri", "Maxtumquli ta'rifi", "Abay ma'rifati", "Behbudiy va boshqalar", "Botmasin chiqqan quyosh", "Yaponiyada yetti kun", "Yosin mening hujjatim" kabi ilmiy va ommabop kitoblari bunga yaqqol misoldir.

Professor Bahodir Karim 500 ga yaqin maqolalar muallifi. Ularning bir qismi Turkiya, Germaniya, AQSH, Turkmaniston, Ozarboyjon, Ukraina, Qozog'iston, Qirg'iziston, Saudiya Arabistoni, Afg'onistonda e'lon qilingan va ko'plab e'tiroflarga sazovor bo'lgan. Ustozning nemis olimasi Ingeborg Baldauf xonim bilan jadid adabiyotiga oid tadqiqotlari alohida bir mavzu. Uning salmoqli tadqiqotlari bugun xorijlik mutaxassislar tomonidan e'tirof etilmoqda. Birgina yaponiyalik professor, jadidshunos Xisau Komasoning so'zlariga e'tibor bering:

"Professor Bahodir Karim bilan o'n yildan ortiq vaqtdan beri ilmiy hamkorlik qilib kelaman. U o'zbek adabiyoti bo'yicha yetuk mutaxassis. Ayniqsa, Abdulla Qodiriy ijodini tadqiq etish borasidagi ishlari bilan keng tanilgan. U bilan suhbatlashganda buyuk adibga bo'lgan chuqur hurmat va samimiy mehri his etib turasiz. Shuningdek, u turkman adabiyotiga ham katta qiziqish bildiradi hamda Maxtumquli kabi shoirlar ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlar muallifidir. Hozirgi paytda butun e'tiborini jadidshunoslikka qaratib, ketma-ket kitoblar va ilmiy maqolalar chop ettirmoqda. Ishonch bilan aytish mumkinki, Bahodir Karim o'zbek adabiyotshunosligining yetuk vakili sifatida muhim ilmiy natijalar bilan sohani boyitib kelmoqda".

Shundan ham ko'rinadiki, Bahodir Karim munosib izdosh sifatida o'zbek adabiyotshunosligida dovuq qozongan olimlardan sanaladi.

2. BAHODIR KARIM – ZAMON BILAN HAMNAFAS INSON

Ilm va ijod insonni adabiylikka daxldor etadi. Uning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi yana bir saodatdir. Ustoz-

da o'tkaziladigan adabiy-ilmiy anjumanlarda, tadbirlarda, yosh ijodkorlar seminarlarida qatnashadi. Bir necha yildan beri "Yosh kitobxon", "Yosh kitobxon oila", "Jadidlar izidan" respublika tanlovlarida hakamlilik qiladi.

Professor Bahodir Karim jahongash-ta, dunyo e'tirofidagi olim. Istanbul, Anqara, Leypsig, Berlin, Pekin, Semfiropol, Ashxobod, Olmaota, Turkiston, Tokioda o'tkazilgan xalqaro anjuman hamda tadbirlarda qatnashdi, 100 tomlik "Turkiy adabiyot durdonalari" majmuasining turkman adabiyoti qismini tayyorlashda jonbozlik ko'rsatdi. Bundan tashqari, mashhur turkman shoiri Maxtumquli ijodiga alohida mehr qo'ydi. 2024-yili "Maxtumquli – insoniyat shoiri" kitobi uchun "Maxtumquli Firog'ining 300 yilligiga" medali bilan taqdirlandi. "Abdulla Qodiriy va germeneytik tafakkur" kitobi 2015-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan e'lon qilingan "Vatan uchun yashaylik" tanlovida o'rin oldi. Olimning xizmatlari munosib e'tirof etilib, 2016-yili "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni, 2020-yili esa "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

3. BAHODIR NURMUHAMMAD. U KIM?

Bugun ilm ahli professor Bahodir Karimni yaxshi bilishadi. Talabalar, respublika miqyosida o'tkazilayotgan tanlov ishtirokchilari, umuman jamoatchilik Bahodir Karimovni zamonamizning yetuk mutaxassisi, jadidshunos, qodiriyshunos sifatida e'tirof etadi. Ammo Bahodir Nurmuhammad nomini hali kashf etmagan-dek...

Olimning tarjimaiy holiga qarasak, ota-onasining ziyoli insonlar bo'lganligi, oilada hamisha kitobxonlik hukm surganligiga guvoh bo'lamiz. Talabalik yillarida "Yoshlik", "Sharq yulduzi" jurnallarida, "Ma'rifat", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetalarida dastlabki adabiy-tanqidiy maqolalari nashr qilinganidan xabar topamiz. Ammo "Bunda bir hikmat bor" (2016), "Nega... odam" (2016) kabi kitoblarni olib, undagi ixcham, katta-yu kichikka birday tushunarli bo'lgan ibratli hikoyalarni o'qisak, muallif Bahodir Nurmuhammad nomi sirli bir shaxs bo'lib tuyuladi. Biroq bu olim Bahodir Karim tafakkuri olamining yana bir ufqidir. "Nega... odam" kitobida o'n sakkiz ming olamni, avvalo, o'zligini anglashga urinayotgan insonning azaliy 18 ta savoli va unga nuktadonlik bilan topilgan javoblari bor. Va shu insonning 18 holatdagi angamlari badiiy ifodasini topgan. Bunday hayotiy xulosalarni topish uchun o'ta nozik kuzatuvlar, katta hayotiy tajriba va ilm kerak. "Bunda bir hikmat bor" to'plami ham ana shunday kuzatuvlar va hayot insonga taqdim etadigan achchiq xulosalardan iborat. Ularni o'qiganda turk adibi va pedagogi Junayd Suavi yodimga keladi. U ham katta olim, ammo kichik ibratli hikoyalari qalbarni o'rtab yuboradi. Bahodir Nurmuhammadning ham Qur'oni karim hamda Hadisi sharif ruhi bilan sug'orilgan kichik ibratlari o'quvchini hayratlar ummoniga tortib ketadi va o'z qalbi bilan gunoh-u savoblarini ro'baru qilib qo'yadi. O'rta tashlangan umumbashariy savollarning javobi esa juda og'ir. Ushbu ibrat-hikoyalar butun hayotini ilm-u ma'rifatga baxshida butun ustoz – professor Bahodir Karimning ilm bilan sug'orilgan yana bir darsi, sabog'i deyish mumkin. Zero, asl muallimning bu dunyodagi eng buyuk a'moli saboq va ibratdir.

Xoliyor SAFAROV,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Voqeiy hikoya

Baraka negizi – halollikda



Haftaning birinchi kuni bo'lgani uchun shahar tomonga qatnovchi mashinalar turadigan "pitak"da yo'lovchilar ko'p. Aksiga olib, doim qatorlashib navbat kutib turadigan avtoulavlar ham kam. Sanoqli mashinalargina yopirilib chiqayotgan kerakli yo'lovchini oladi-yu, jo'naydi.

– Bugun asosiy ish kuni bo'lsa, nima ko'p shaharga o'qish, ish, yumushlar bilan boruvchi ko'p, kelib-kelib bugun mashinalarning kamligini qarang, – norozi ohangda yonidagisiga luqma tashlaydi yo'lovchilardan biri.

– Shunaqa paytda jamoat transporti grafik bo'yicha yurmagan g'ashingni keltiradi, – dedi ikkinchisi.

– Sho'piralar ja-a o'zboshimcha bo'lib ketyaptida, tartib-qoidani unutib qo'yishdi bular, – dedi yana birov.

Shu payt kutib turganlar oldiga bir "Damas" kelib to'xtadi. Haydovchi mashinaga o'tirayotganlarni ogohlantirdi:

– Yo'l haqini ikki baravar qilib to'laysizlar.

Endigina o'rindiqlarga joylashayotganlar norozi ohangda mashinadan tushib keta boshlashdi.

– Ol-a-a...

– Insof qolmabdi bularda...

Mashinada ishga, o'qishga shoshayotganlarga qoldi.

– Biz rozimiz, haydang, – dedi haydovchining yoniga bamaylixotir joylashgan keksa bir otaxon. Baribir orqadagilarning peshonasi tirishib, haydovchiga norozilik bilan qarab qo'yishdi.

– Nega bugun mashina kam? – so'radi otaxon haydovchidan.

– Nalog quvyapti, shunga, dokument surishtirishyapti... Ko'plarning litsenzyasi yo'q-da, ota, – tushuntirdi haydovchi mashinani o't oldirib.

Jimlikni otaxonning u yoqdan, bu yoqdan gapirib borishi oradan

ko'tardi. Hammaning e'tibori qariyaning so'zlarida edi.

– Har bir ishda baraka bo'lishini istasang, me'yordan chiqma, degan gap bor. Taomilni buzib, haddidan oshganning ishidan ham Yaratgan barakani ketkizadi. Otim – Xudoyberdi. Ko'pchilik meni Haqberdi deb chaqiradi. Umr bo'yi traktorchilik qildim. Yer haydadim, yuk tashidim, el-yurt xizmatida bo'ldim. Nima ko'p, yuk tashituvchi ko'p, transport istab daraklashganga shu odamga uchrashing, og'iringizni yengil qiladi, deb meni ko'rsatvorishadi. "Hal qilib beradi", degan gap ko'p tilga olinaverib, bora-bora ismim Haqberdiga aylandi. Ostonamga ishi tushib yo'qlab kelganlar Haqberdi aka deb chaqiradigan bo'lishdi. Men ham shunga ko'nikdim. Xizmatim albatta tekinga emas, me'yordagi haq evaziga. Kam bo'lmadim. Halol rizqning barakasini Olloh berarkan. Ayrim paytlar birovning o'tin-cho'pini traktorda tashib berganimda kimlardir mo'ljalimdan ortiq pulni qo'limga

tutqazdi. Men esa o'lchovdagi pulni olib, ortig'ini egasiga qaytardim. Shu traktorchilik orqasidan uy-joy soldim, o'g'il uylab, qiz chiqardim. Kolxozdan oladigan ozgina mao-shimni hisob-kitob bilan sarflagandim, hamma narsaga yetdi. Haj safariga ham bordim. Mana endi nafaqamni olib, bolalarning orzu-havasini ko'rib yuribmiz kampir ikkov. Ko'p topaman deb odam o'zini o'tga, cho'qqa urgani bilan faqat atalgan nasibasini oladi, kimnidir norozi qilib topilgan boylik hech qachon vafo qilmaydi. Men buni hayotda ko'p bor kuzatdim, bolalarimga ham buni doim uqtirib keldim.

Uzoq yo'l davomida otaxonning hayot tajribasini qiziqib tinglash asnosida yo'lovchilardagi boyagi dilxiralik ko'tarildi. Mashina manzilga yetib kelgach, haydovchi shosha-pisha o'tirganlarga xitob qildi:

– Doimgidek yo'l haqini bersanglar bo'lgani, ortig'i kerakmas...

Yo'lovchilar haydovchi aytgan yo'l haqini darrov uzatib, mashinadan tushayotganida nigohi bilan Haqberdi otani qidirishdi. Otaxonga minnatdorchilik bildirib qo'ymoqchi edi. Biroq otaxon haydovchiga allaqachon yo'l haqini to'lagan, o'z manziliga ravona bo'lgan edi.

Umida EGAMBERDIYEVA

“UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE” (UBS TOSHKENT FILIALI) NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASASI TOSHKENT SHAHRIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN YOKI DOIMIY YASHOVCHI ILMIY VA PEDAGOGIK SALOHIYATGA EGA BO'LGAN PROFESSOR-O'QITUVCHILARNI TANLOV ASOSIDA ISHGA TAKLIF ETADI

Bo'sh lavozimlar:

- Kafedra mudiri;
- professor;
- dotsent;
- katta o'qituvchi;
- Assistent (o'qituvchi).

Asosiy yo'nalishlar:

- Iqtisodiyot, moliya va buxgalteriya hisobi;
- biznesni boshqarish, menejment va marketing;
- axborot texnologiyalari va raqamli tizimlar;
- xorijiy tillar (ingliz va filologiya fanlari);
- pediatriya, farmatsiya, oliy hamshiralik, stomatologiya, davolash ishi;
- ijtimoiy-gumanitar fanlar.

Nomzodlarga qo'yiladigan talablar:

- Tegishli soha bo'yicha oliy ma'lumot (Magistr darajasi);
- ilmiy daraja (PhD, DSc) mavjudligiga ustuvorlik beriladi;
- zamonaviy innovatsion ta'lim metodlarini egallaganlik;
- chet tilini bilish darajasi.

Universitet tomonidan yaratilgan sharoitlar:

- Yuqori va barqaror ish haqi (suhbat asosida);
- ilmiy ish va tadqiqotlarni moddiy rag'batlantirish;
- Toshkent shahrida shinam ish sharoiti.

Hujjatlarni topshirish tartibi:

- Nomzodlar o'z ma'lumotnomalarini (rezyume/obyektivka) elektron pochta yoki telegram orqali yuborishlari lozim.

Manzil: Toshkent shahri,
Sergeli tumani, Nilufar MFY,
Sergeli 2-mavzesi, 2-“b” uy.
Telefon: (91) 797-87-12;
yoki <https://t.me/tash117>,
elektron pochta: hr@ubs.uz
(mo'ljal: Qipchoq ko'chasi,
Chinor metro bekati yonida).

Tanlovda ishtirok etish uchun arizalar ushbu e'lon “Ma'rifat” gazetasida chop etilgan kundan boshlab 30 kun davomida qabul qilinadi.

E'tirof

Uch davrni bog'lagan ta'lim fidoyisi

Ba'zi insonlar borki, ularning hayot yo'li butun bir davrlar orasidagi ko'priikka aylanadi. Akmal Yo'ldoshev ana shunday — uch davrni bog'lagan ta'lim fidoyilaridan biridir.

Akmal Yo'ldoshev 1946-yili Toshkent shahrida tug'ildi. 1967-yili industrial-pedagogik texnikumni texnik-texnolog mutaxassisligi bo'yicha tamomlab, mehnat faoliyatini Toshkent shahridagi kasb-hunar bilim yurtlarida ishlab chiqarish ta'limi ustasi sifatida boshladi. Bu lavozim yoshlarga kasb sirilarini o'rgatish, nazariy bilimni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, mehnat intizomi va kasbiy madaniyatni shakllantirish kabi o'ta mas'uliyatli vazifalarni o'z ichiga olardi. U o'quvchilarga asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanish, mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilish va ishlab chiqarish madaniyatini singdirish orqali ularning malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga hissa qo'shdi.

Yosh mutaxassis faqat amaliy ish bilan cheklanib qolmadi. U bilim olishni hayot mezon deb bilib, Toshkent davlat universitetini tarix va huquqshunoslik fanlari o'qituvchisi ixtisosligi bo'yicha tamomladi. Keyinchalik dotsent ilmiy unvoniga sazovor bo'ldi. Bu esa uning nazariy bilim bilan amaliy tajribani uyg'unlashtira olgan pedagog sifatida shakllanganidan dalolat beradi.

Tinimsiz mehnat, tashkilotchilik qobiliyati va rahbarlik salohiyati Akmal Yo'ldoshevni kasb-hunar bilim yurti direktori lavozimiga olib keldi. Bu yerda u ta'lim muassasasining barcha faoliyati uchun mas'ul rahbar sifatida muhandis-pedagog kadrlarni tanlash, ta'lim sifati va tarbiyaviy ishlar samaradorligini ta'minlash, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi muhim vazifalarni amalga oshirdi. Bu davrda u rahbarlikning eng muhim qoidasi — insonga ishonish va jamoa bilan ishlash san'atini yanada chuqur o'zlashtirdi.

1985-yili Akmal Yo'ldoshev Jizzax viloyati kasb-hunar ta'limi boshqarmasi boshlig'i etib tayinlandi. Bu o'sha davr uchun katta ishonch va yuksak mas'uliyat ramzi edi. Endi uning zimmasida bitta bilim yurti emas, balki butun viloyatdagi kasb-hunar ta'limi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi turardi. Malakali ishchi kadrlar tayyorlash, ta'lim sifati, ishlab chiqarish ta'limi, muhandis-pedagog kadrlar bilan ta'minlash va soha rivojini rejalashtirish kabi masalalar uning kundalik faoliyatining ajralmas qismiga aylandi. Bu vazifa chuqur bilim, tahliliy fikrlash, tashkilotchilik mahorati va insonlar bilan ishlash qobiliyatini talab qilardi.

1989-yili Toshkent viloyati xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari lavozimiga o'tdi. Mustaqillik yillarida mamlakat ta'lim tizimi tubdan yangilanib, 1997-yili qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tashkil etildi. Bu keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish uchun tajribali rahbarlarga ehtiyoj katta edi.



Shu bois 1999-yili Akmal Yo'ldoshev Toshkent viloyati o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi boshlig'i etib tayinlandi. Bu yerda uning Jizzax viloyatida orttirgan boy tajribasi, tashabbuskorligi va tashkilotchilik mahorati yanada to'liq namoyon bo'ldi. Yangi ta'lim muassasalarini shakllantirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ta'lim sifatiga e'tiborni kuchaytirish kabi vazifalarni bajarishda faol ishtirok etdi.

Keyinchalik Toshkent viloyati xalq ta'limi boshqarmasiga rahbarlik qildi. 2004-yili esa mamlakatda Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi amalga oshirilayotgan pallada O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Ishlar boshqarmasi boshlig'i lavozimiga taklif etildi.

Bu faoliyat uning mehnat yo'lidagi eng mas'uliyatli bosqichlardan biri bo'ldi. Respublika miqyosida vazirlik markaziy apparati ishini muvofiqlashtirish, ijro intizomini ta'minlash, davlat rahbariyati hujjatlari ijrosini nazorat qilish, vazirlik faoliyatining tashkiliy samaradorligini ta'minlash kabi o'ta muhim vazifalar aynan shu boshqarma zimmasida edi. Bu lavozim chuqur huquqiy bilim, yuksak tashkilotchilik, tezkor fikrlash, muloqot madaniyati, va eng muhimi, halollik hamda mas'uliyatni talab qiladi.

Men Akmal aka bilan to'rt yil bir jamoada ishlash baxtiga muyassar bo'lganman. Shu yillar davomida uning vazminligi, odamlarga hurmati, har bir hujjat va topshiriqqa mas'uliyat bilan yondashishi, eng avvalo, insonni qadrlash fazilatiga ko'p bor guvoh bo'lganman. U rahbarlikni mansab emas, xalq va ta'limga xizmat qilish deb bilardi.

Bugun Akmal Yo'ldoshev muborak sakson yoshni qarshi olmoqda. Uning hayot yo'lga nazar tashlar ekanmiz, bir haqiqat yanada yaqqol namoyon bo'ladi: u sovet davri kasb-hunar ta'limi, mustaqillikning dastlabki islohotlari va zamonaviy xalq ta'limi tizimini bir-biriga bog'lab turgan fidoyi avlod vakilidir. Turli davrlarda tizimlar, nomlar va boshqaruv shakllari o'zgardi, ammo uning ta'limga bo'lgan sadoqati, halol mehnati va insonga bo'lgan hurmati o'zgarmadi.

Quvonarlisi, Akmal aka bugun ham ta'lim sohasidan uzilgan emas. Demak, uning fidoyiligi egallagan lavozimlari bilan emas, balki yurt ravnaqi va yoshlar kamoli yo'lidagi uzluksiz xizmati bilan o'lchanadi. Shu bois ham uning hayot yo'li "Uch davrni bog'lagan ta'lim fidoyisi" degan ta'rifga munosibdir.

Akmal akaga mustahkam sog'liq, xotirjamlik va yana ko'p yillar yurtimiz ta'lim taraqqiyoti yo'lida barakali umr tilaymiz. U kabi fidoyi ustoz va rahbarlarning hayoti hamisha yosh avlod uchun ibrat maktabi bo'lib qolaveradi.

Halim SAIDOV,
Xalq ta'limi a'lochisi

Ehtirom

Hayotim davomida xizmat safarlarida, ilm va ijod ahli orasida juda ko'p ayollar bilan tanishdim. Biri dunyoparast, biri amalparast, biri xudbin, biri badfe'l, biri xushfe'l, biri noshud, biri oilaparvar...

Kamina sizga ta'riflaydigan ayol benazir. Benazirligi shundaki, birinchidan, ilmi o'ladan — Mullo Tojimuhammadning nevarasi, Vatanimizning yirik olimlaridan birining to'ng'ich qizi, jannatmakon yurtimizning asl farzandi, sevimli va suyakli shoirimizning sadoqatli zavjasi.

Ha, hushyor mushtariy, to'g'ri topdingiz. Bu ijodkor ayol "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni sohibi, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor G'aybullas-Salomning qizi, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning ayoli Nazira as-Salomdir.

Nazira opa bilan ilk uchrashuvimiz 2018-yil kuz oylarida bo'lgan edi. Men "Ta'lim texnologiyalari" jurnalining mas'ul kotibi edim. Tashabbu-

Sadoqatli ayol (Sevimli va ijodkor opajonimizning shukrona kuniga dil izhori)

simiz bilan jurnalning ichki muqovasida "Maktab yaratgan ustozlar" rukni tashkil etilgan edi. Bu ruknda mamlakatimizning ilm-fan, ta'lim taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan fidoyi ustozlar, muallimlar haqida maqolalar berib borar edik. Rejaga ko'ra, ToshDU (O'zMU) professori G'aybullas-Salom haqida material tayyorlandi. Shunda domlaning surati zarur bo'lib qoldi. Opa bilan bog'lanib, ustozning suratini oldik va maqola chop etildi. Biroq jurnalning adadi kam bo'lganligi sababli materialni yana chop etishimizni mushtariylar iltimos qilishdi. Ularning iltimosini inobatga olgan holda material to'ldirilgan holda chop etildi.

Buning uchun "Marifat" gazetasi tahririyatiga minnatdorchilik bildiramizki, "U so'zni, so'z esa uni ko'tardi" nomi bilan maqola chop etilib, barcha mushtariylarga yetkazilishi ta'minlandi.

Bir kuni Nazira opa bilan ustozimiz Saydi Umirov xonadoniga bordik va suhbat shirindan bahramand bo'ldik. Ustozimiz xonadonidan qaytar ekanmiz, yo'lda Nazira opa hikoya qildilar:

Nazira opa ToshDU (O'zMU) jurnalistika fakultetida tahsil olgan. Diplom ishiga ustozimiz Saydi Umirov ilmiy rahbarlik qilgan. Diplom ishini yozib bo'lganidan so'ng Nazira opa, domlamga borishdan oldin bir otamga ham ko'rsatib olayin, degan ekan. Va ustozimiz G'aybullas-Salomga "Otajon, diplom ishimni yozib tugatdim, bir ko'rib bersangiz" degan. Shunda ustoz Nazira opaga qarab: "Men diplom ishingni ko'rib chiqolmayman. Sening ilmiy rahbaring Saydi Umirov, domlangga olib borgan" degan ekan...

Avvaliga hayron bo'ldim, keyin ustozimiz G'aybullas-Salom to'g'ri yo'l tutganini anglab yetdim.

Ijod, ilm, san'at ahlidan ayrimlar bilan so'zlashganingizda ularning kibr-u havosi, manmanligidan hayratlanasiz. Ektranda boshqacha, hayotda boshqa so'zlaydi. Naziraxon opada kibr-u havo, manmanlik, nofe'llik, dunyoparastlikdan asar yo'q. Nihoyatda sodda, odmi, xushfe'l, bag'rikeng, mehribon inson. Nazira opa kim bo'lishidan qat'i nazar, qo'li kalta insonlarga muruvvat ko'rsatadi, saxovatpesha ayol.

1976–1981-yillari ToshDUning o'zbek filologiyasi fakultetida tahsil olganmiz. Oltin davrning besh yili mobaynida Nazira opaning padari buzrukvori, filologiya fanlari doktori, professor G'aybullas-Salomdan "Tarjima nazariyasi", "Tarjima nazariyasiga kirish" kabi kurs ma'ruzalarini tinglaganmiz. Va shukrki, ustozlarimizning yo'lidan borib, kam bo'lmadik.

Matonatli opamiz sevimli shoirimiz Muhammad Yusuf tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan tadbirda ishtirokchilarga "Muhammadga maktab" kitobini tuhfa qilgan edi.

*Lochin netar ko'kda ko'zi o'tmasa,
Sindir qalamingni so'zi o'tmasa.
Vatan desang, o'pkang to'lib ketmasa,
She'r yozishga
balo bormi, birodar!*

Qalamingiz va so'zingiz o'tkir bo'lib, ijodingiz gullab yashnasin. 100 yoshingizda ham yuzlashishni Rabbim nasibi ro'z aylasin, opajon!

Qumrixon SULTONOVA,
filologiya fanlari nomzodi





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI

"TEMURBEKLAR MAKTABI" HARBIY AKADEMIK

LITSEYI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA

TANLOV E'LON QILADI:

➤ Ta'lim sifatini ta'minlash bosh mutaxassisi;

- Psixologiya va tarbiya kafedrasini mudiri;
- Ingliz tili o'qituvchisi;
- Laborant;
- Xo'jalik mudiri.

Tanlovda nomzodlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Pedagoglarga:

Tegishli ixtisoslik bo'yicha ilmiy daraja(PhD, DSc) va ilmiy unvonga(professor), shuningdek, tegishli mutaxassislik bo'yicha yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy daraja va unvonlarga egaligi, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-son qarori talablariga muvofiq, kamida 5 yil uzluksiz pedagogik ish stajiga ega bo'lishi shartligi ko'rsatib o'tilgan.

Bundan tashqari, nomzod O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-sonli "O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va Davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorini bilishi shart.

2. Mutaxassislarga:

O'z mutaxassisliklari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlari, kompyuterda ishlashni va turli xil dasturlarni o'rnatib bilishlari shart.

Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

- Direktor nomiga ariza.
- O'zbekiston Respublikasi fuqarolik pasporti yoki ID-karta nusxasi.
- Oliy ma'lumoti, ilmiy daraja va ilmiy unvoni haqidagi diplom nusxalari.
- Ilmiy ishlar ro'yxati.
- Malaka oshirish to'g'risidagi guvohnoma nusxasi (xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro sertifikat).
- Mutaxassisligi bo'yicha kurslarda tahsil olganlik to'g'risidagi sertifikatlar.
- Mehnat daftarchasi yoxud elektron mehnat daftarchasidan ko'chirma.

Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab 1 oy muddat ichida qabul qilinadi.
Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi, 3-"a" uy.
Murojaat uchun telefon: (71) 217-81-01.

Kenjayev Laziz Razzakovichning 14.00.27 – Xirurgiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Chandiqlarni tashxislash va jarrohlik davolashning yangi usullarini ishlab chiqish" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Xaydarov Farrux Nuritdinovichning 14.00.27 – Xirurgiya hamda 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosliklari bo'yicha "Qorin bo'shlig'ining chandiq kasalligi va chandiq ichak tutilishining diagnostikasi, profilaktikasi va jarrohlik davosini maqbullashtirish" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Norqulov Bahodir Musulmanovichning 05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Suv chiqarish inshootlari byeflari tutashishida oqim energiyasini so'ndirishni ilmiy va eksperimental asoslash" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.26/26.01.2023.T.109.03 raqamli ilmiy kengashining 2026-yil 7-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140147, Samarqand shahri, Lolazor ko'chasi, 70-uy.

Tel/faks: (66) 237-18-47, 237-19-53; e-mail: samdaqu@samdaqu.edu.uz

Xusinova Shoir Akbarovning 14.00.05 – Ichki kasalliklar hamda 14.00.33 – Jamoat salomatligi. Sog'liqni saqlashda menejment ixtisosliklari bo'yicha "Keng tarqalgan surunkali kasalliklarda bemorlarning davolanishga moyilliklarini solishtirma tahlil qilish va uni takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida)" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektori@sammi.uz

Maxkamov Ulug'bek Abdugapporovichning 09.00.01 – Ontologiya, gnoseologiya va mantiq ixtisosligi bo'yicha "Dialogning ilmiy ijodiy faoliyatga ta'siri va uni modellashtirishning falsafiy metodologik jihatlari" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 20-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 246-02-24, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Kamalov Miyrbek Murat ulining 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Sholining kolleksion namunalari Qoraqalpog'iston sharoitida o'rganish asosida stress omillarga bardoshli donorlarini olish" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.10.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 4-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230101, Nukus shahri, Abdambetov ko'chasi.

Tel/faks: (61) 229-27-01, 229-25-09; e-mail: ftga_info@edu.uz

Nurmetova Dilfuza Shuxratovnaning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo'yicha "Xorazm viloyatida maktab yoshidagi o'smirlarda kariyes kasalligining morfologik xarakteristikasi" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 25-iyul kuni soat 11:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (95) 911-0050; veb-sayt: www.bsmi.uz; e-mail: info@bsmi.uz

Aliyev Bayram Pashayevichning 14.00.35 – Bolalar xirurgiyasi ixtisosligi bo'yicha "Bolalarda tug'ma orqa miya churralarining diagnostikasini va xirurgik davolashni optimallashtirish" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.102.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-iyul kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektori@sammi.uz

Abdusamatova Barno Erkinovnaning 14.00.12 – Tibbiy reabilitologiya hamda 14.00.09 – Pediatriya ixtisosliklari bo'yicha "O'smir qizlarga tibbiy yordam ko'rsatish va tibbiy reabilitatsiya qilishni tashkil etishni takomillashtirish" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.04 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektori@sammi.uz

Rahimov Farrux Farhod o'g'lining 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya hamda 14.00.31 – Urologiya ixtisosliklari bo'yicha "Yorg'oq organlarining yiringli-destruktiv kasalliklari bo'lgan bemorlarning klinik va immunologik xususiyatlari va davolash usullarini optimallashtirish" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 31-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.

Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@immuno.uz

Salimbayeva Iqboloy Dilshod qizining 05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo'yicha "O'zani beton bilan qoplangan kanallarning gidravlik qarshiligi va o'tkazuvchanlik qobiliyati" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.26/26.01.2023.T.109.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-avgust kuni soat 16:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140147, Samarqand shahri, Lolazor ko'chasi, 70-uy.

Tel/faks: (66) 237-18-47, 237-19-53; e-mail: samdaqu@samdaqu.edu.uz

Israilova Xikoyat Musakulovnaning 08.00.04 – Iqtisodiyot ixtisosligi bo'yicha "Mintaqada meva-sabzavotchilikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari(Farg'ona viloyati misolida)" mavzusidagi(iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.I.07.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-avgust kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 141001, Samarqand viloyati Oqdaryo tumani,

Dahbed qo'rg'oni, A.Temur ko'chasi, 7-uy.

Tel.: (66) 492-81-16; e-mail: info@samaguni.uz

Tahlil

“Galaktikada bir kun”da fizik xatolar

O'zbek adabiyotida ilmiy-fantastik janr hali keng rivojlanmagan bo'lsa-da, zamondosh yozuvchilarimiz tomonidan ushbu yo'nalishda yaratilayotgan asarlar kitobxonlarni ilm-fan va koinot sirlari sari yetaklamoqda. Sa'dulla Quronovning “Galaktikada bir kun” qissasi ham ana shunday asarlardan biri bo'lib, unda ilmiy tasavvurlar, sarguzasht va badiiy fantaziya o'zaro uyg'unlashgan.

yatlariga moslashtirishga harakat qilganidir. Biroq asarning ba'zi o'rinlarida fundamental juz'iy xatoliklar ham uchraydi. Masalan, bosh qahramon Ahmad o'zi yasagan qurilmani tasvirlashda: “Uchar qurilmam raketadan ajralib, kichik energiya bilan gravitatsiya to'liqligiga tushib oladi”, deydi. Muallif ushbu o'rinda Ahmadning fikriga ilmiy asos sifatida Nyuton va Eynshteyn tomonidan ilgari surilgan Butun olam tortishish qonunini keltirib, unga ko'ra hamma narsa bir-birini tortishini aytadi. Bu yerda statik massalarning o'zaro tortishish kuchi va gravitatsiya to'liqlilari (fazoviy vaqt to'qimasining tebranishlari) tushunchalari o'zaro chalkashtirilgan.

Isaak Nyuton o'zining klassik mexanikasida gravitatsiya to'liqlilarni umuman nazarda tutmagan, chunki uning nazariyasida tortishish kuchi masofaga bir zumda (cheksiz tezlikda) uzatiladi. Albert Eynshteyn esa o'zining Umumiy nisbiylik nazariyasida gravitatsiya to'liqlilarning mavjudligini bashorat qilgan. Lekin Eynshteyn bu to'liqlilarning energiyasi g'oyat zaif ekanligini, ularda uchish tugul hatto maxsus laboratoriyalarda o'lchash ham deyarli imkonsizligini uqtirgan (fanda ushbu to'liqlilar faqat 2015-yilda LIGO observatoriyasi tomonidan o'ta og'ir qora tuynuklar to'qnashuvi natijasida arang qayd etildi). Afsuski, muallif olimlarning ushbu xulosalarini xato talqin qilgan. Gravitatsion to'liqlilar fazoda mavjud, lekin ularning tabiati dinamik bo'lgani va energiya zichligi o'ta pastligi sabab ularndan uchar qurilmalarni harakatlantiruvchi yoki eltuvchi “oqim” sifatida foydalanish mutlaqo xatodir.

Navbatdagi muammo uchar kemaning harakat tezligi bilan bog'liq. Qissada salmirliliklar kemasi 10–20

kun ichida bir yulduzdan boshqa yarqiroq'iga uchib o'tishi tasvirlangan. Kosmik miqyosdagi masofalarni (masalan, Quyoshga eng yaqin yulduzgacha bo'lgan 4,24 yorug'lik yili masofasini) hisobga olsak, bir necha o'n kunda yetib borish uchun kema yorug'lik tezligidan bir necha barobar emas, balki yuz minglab, millionlab barobar tezroq harakatlaniishi kerak. Vaholanki, Eynshteynning Maxsus nisbiylik nazariyasiga ko'ra, tinchlikdagi massaga ega bo'lgan hech qanday moddiy jism yorug'lik tezligiga yeta olmaydi va undan o'ta olmaydi, chunki tezlik yorug'lik darajasiga yaqinlashgani sayin jismning kinetik energiyasi va massasi cheksizlikka intiladi.

Koinotda qanchalik yuqori sivilizatsiya bo'lsa, tabiat qonunlarini, xuddi matematikada $2+2=6$ qilib bo'lmaganidek, o'zgartira olmaydi va bu fundamental fizik cheklovni buza olmaydi.

Shuningdek, Ahmad, Margol va Mokilar o'zlariining Ahmad chizmalari asosida yasalgan “Ko'kkezar” uchar kemasida Marsda ularni qidirayotgan Obmaning josuslaridan qochayotgan sahnada: “Ko'kkezar eng yaqin gravitatsiya tuynugiga kirdi-da, ko'zdan g'oyib bo'ldi”, deyiladi. Bu yerda ham muallifga fizik aniqlik yetishmagan, chunki zamonaviy astrofizikada “gravitatsiya tuynugi” degan tushuncha umuman mavjud emas (muallif bu variantni gipotetik qurt teshiklariga almashtirsa ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lardi). Fizika nuqtayi nazaridan asardagi jiddiy muammo shundaki, kemaning 15 daqiqada 17 yorug'lik yili masofasini bosib o'tishi qayd etilgan. Bu ko'rsatkich yorug'lik tezligidan taxminan 595 000 marta yuqori bo'lib, relyativistik fizikaning barcha tamoyillariga zid keladi. Kamiga asarda Gravitatsiya tuynugiga kirib bunday katta tezlikka erishiladi, ammo “Gravitatsiya tuynugi” tushunchasi o'zi amalda ham, nazariyada ham mavjud emas.

Asarning yana bir epizodida Ahmad va uning do'stlari “Duradu” kemasi qanoti noyob metallni qo'lga kiritish uchun o'ziga xos usul qo'llashadi. Ular umumiy uzunligi 9,6 trillion kilometrga (taxminan 1 yorug'lik yiliga) teng bo'lgan “Qumsoat tumanligi” ichiga kirmasdan, uning tashqarisida turib, bor-yo'g'i 50 kilometrlik quvur va elektr magnit yordamida metall qanotni o'zlariga tortib olishadi. Sa'dulla Quronov bu o'rindagi ulkan miqyos farqini sezib, xatolikni yumshatish uchun kemani tumanlik chegarasiga biroz yaqinlashtiradi, lekin baribir struktura ichiga chuqurroq kirmasdan, tashqaridan turib metallni tortib olishni tasvirlaydi. Bu holat miqyos jihatidan insonning Toshkentda turib, Nyu-York tomoniga bir qadam tashlagan holda u yerdagi narsani qo'li bilan olib qo'yishidek aqlga sig'mas hodisadir. Magnit maydonining kuchi (Bio-Savar-Laplas qonuni va magnit dipollari o'zaro ta'siri qonuniyatiga ko'ra) masofa uzoqlashgan sayin uning kubiga teskari proporsional ravishda o'ta keskin kamayadi. Shuning uchun elektromagnit maydon faqatgina juda yaqin masofadagi obyektlarnigina torta oladi. Shunga qaramay, badiiy tomondan bu sahna juda qiziqarli va g'oyat dramatik shakllantirilgani sababli o'quvchini o'ziga rom etadi.

Xulosa qilib aytganda, “Galaktikada bir kun” qissasida ayrim ilmiy-fizik noaniqliklar uchrasa-da, asar yosh kitobxonlarda ilmiy tafakkur, fazoviy tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. O'zbek adabiyotida ilmiy-fantastika janri hali yetarlicha rivojlanmaganini hisobga olsak, ushbu asar milliy adabiyotimizdagi muhim bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi. Agar qissada yuqorida tahlil qilingan ayrim fundamental ilmiy masalalar zamonaviy fizika qonuniyatlariga yanada aniqroq moslashtirilganida, u nafaqat o'zbek, balki jahon ilmiy-fantastik adabiyotida ham munosib o'rin egallanishi mumkin bo'lgan asarlardan biriga aylangan bo'lar edi. E'tirof etilganidek, rosmansiga “Yosh Eynshteynlar” uchun urug' vazifasini o'tab, zabardast daraxtlar yetishtirardi!

Mahmud MAHMUDOV,
Abdulla Qodiriy nomidagi
ijod maktabi o'quvchisi



Asar yosh kitobxonlar tomonidan zo'r qiziqish bilan qarshi olinib, zamonaviy fizika va astronomiya olamidan bahramand etmoqda. Bilamizki, ilmiy-fantastik asarlardan aniq bir ilmiy haqiqatni qidirish asarning badiiy ruhini cheklab qo'yadi. Ammo shu bilan bir qatorda, asardagi ilmiy-fantastik jarayonlarning ilmiy haqiqatga qarama-qarshi bo'lishi ham to'g'ri emas. Chunki har qanday ilmiy-fantastik asarlar hozirgi kunda aniqlangan, ilmiy asosga ega bo'lgan haqiqatni inkor etishi mumkin emas.

“Galaktikada bir kun” asarida koinot bag'ridagi aqlli mavjudotlar tizimi juda real tasvirlangan. Muallifning eng katta yutuqlaridan biri – sujetdagi hodisalarni iloji boricha fizika va astronomiya qonuni-

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V-6161. Tiraji 6200.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (55) 512-01-50



“Ma'rifat”dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va mual-
lifga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani
yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni
skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:

100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

“O'zbekiston” nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.